

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VAO‘RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
JAHON SIYOSATI TARIX VA FALSAFA FAKULTETI
MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXI KAFEDRASI

RAXMATOV BAHODIRJON ISMAT O‘G‘LI

**ZARDUSHTIYLIK VA JAHON DINLARI (IJTIMOIY
MUNOSABATLAR, MA’NAVIY-AXLOQIY
TAMOYILLARNING QIYOSIY TAHLILI)**

5120300 – Tarix (Markaziy Osiyo xalqlari tarixi) yo’nalishi

KURS ISHI

Ilmiy rahbar: “Markaziy
Osiyo xalqlari tarixi”
kafedrası o‘qituvchisi
I.B. Xudoynazarov

Ilmiy maslahatchi: “Markaziy
Osiyo xalqlari tarixi”
kafedrası t.f.d. professor
M.M. Is’hoqov

TOSHIKEHT – 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. ZARDUSHTIYLIK VA JAHON DINLARI, UMUMIYLIK VA O'ZIGA XOS JIHATLAR

1.1. Jahon dinlari, ularning tarqalish xususiyatlari, umumiy va xos jihatlari....	9
1.2. Markaziy Osiyo xalqlari tarixida zardushtiylik va boshqa jahon dinlarining o'rni.....	32

II BOB. ZARDUSHTIYLIK VA JAHON DINLARI BOSH G'OYALARINING QIYOSIY TAHLILI: IJTIMOIIY MUNOSABATLAR, MA'NAVIY AXLOQIIY TAMOIYILLAR MISOLIDA

2.1. Zardushtiylik va buddaviylik dinlarining qiyosiy tahlili.....	40
2.2. Zardushtiylik va xristianlik dinlari o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlar haqida.....	48
2.3. Zardushtiylik va islom	52
Umumiy xulosa.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	59

Zardushtiylik o'tmish dinlarning eng kuchlilaridandir. Uning budda, xristianlik va islom dinlariga ma'lum darajada ta'siri bor.

Yu.A.Rapoport

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng yurtimiz tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomli asarida "o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas. Davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligimiz uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim" degan edi. Shu munosabat bilan birga dinga bo'lgan e'tibor oshdi. Prezidentimiz aytganidek: "Agar mendan nega milliy qadriyatlarimiz shuncha zamonlar osha bezavol yashab kelayapti, deb so'rashsa, men ang avvalo bu-muqaddas dinimiz deb javob bergan bo'lar edim. Toki har bir vatandoshim, ayniqsa, yoshlar faqat islom dini haqida emas, umuman, dunyodagi mavjud dinlar, ularning tarixi, moxiyati haqida tasavvurga ega bo'lsin"¹.

Har bir millat, xalq o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu - tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, diniy etiqodlarini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi². Zero, o'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan³.

Mazkur jarayonda O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish, uni xolisona tahlil etish muhim omillardan biri hisoblanadi. "... o'zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi..... davlatchiligimizni ilmiy nuqtai-nazardan asoslangan tarixini yaratishdir" – deb ta'kidlaydi davlatimiz rahbari⁴.

O'zbekiston tarixiga yangicha yondashib, uni asl manbalarga tayangan holda

¹ "Fidokor" gazetasi muhbiri bilan 8-aprel. 2000-yilda olib brogan suhbatidan.

² Karimov I.A. Biz kelajakni o'z qo'limiz bilan quramiz. -T., O'zbekiston. 1999. -B.132.

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T., Ma'naviyat.2009. -B.4.

⁴ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T., Sharq. 1998. -B.12.

o'rganish va haqqoniy yoritish masalasi O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlarida to'laqonli tarzda o'z ifodasini topgan⁵. Mazkur yo'nalishdagi vazifalar qadimgi shaharlar tarixini tadqiq etish tarix fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Butun O'rta Osiyo moddiy va ma'naviy madaniyatining beshigi Xorazm vohasi va u yerda yashagan turkiy elatlar bo'lgan, shulardan o'zbek elati tashkil topgan.

I.A.Karimov juda o'rinli qayd qilganidek, "Xorazm davlati tarixini biz 2700 yillik tarix deb bilamiz". Xorazmda o'troq hayot undan ham birmuncha oldin yuzaga kelgan, davlat uning mahsuli tarzida tashkil topgan. Bu haqda bundan tahminan 3 ming yil avval yaratilgan "Avesto"ning qo'lyozmasi binobarin yozma tarixning ilk debochasi ishonchli dalolat bergan. "Bu nodir kitob, deb yozgan edilar, I.A.Karimov, bundan XXX asrlar muqaddam ikki daryo oralig'ida mana shu muqaddas zamin umrguzorlik qilgan ajdodlarimizni biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir". Yurtboshimiz "Avesto" Xorazmdek qadimiy o'lkada buyuk davlat, boy ma'naviyat qimmatli madaniyat bo'lganligini hech kim inkor eta olmasligini ham ta'kidlagan. Shunday ekan, Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" va Zardushtiylikning o'zini paydo bo'lishida qandaydir ehtiyoj mavjud bo'lgan ya'ni davlat mavjud bo'lgan degan xulosani chiqaramiz.

Xo'sh bu mavzuning, zardushtiylik va jahon dinlarining o'rganishning dolzarbligi nimada? Men mavzuni o'rganish jarayonida mavzuni dolzarbligini quyidagilarda belgiladim:

Birinchidan, Mamlakatimiz hududida tashkil topgan ilk davlatchilik asoslarini shuningdek, shu orqali ilk diniy e'tiqodlarni paydo bo'lish jarayonining tarixini o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda;

Ikkinchidan, Markaziy Osiyoda tarqalgan, o'z davrida jahon dini bo'la olgan Zardushtiylik dinida mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy-axloqiy jihatlarini ilmiy tahlil qilish g'oyat muhimdir;

Uchinchidan, bugungi kunda mavjud bo'lgan, jahon dinlari deb nomlanuvchi xristianlik, buddizm va islom dinida mavjud bo'lgan axloqiy-

⁵ Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T., Sharq. 1998. -B.26.

ma'naviy xususiyatlarini chuqurroq o'rganish va ularning ildizi aynan zardushtiylikka borib taqalishi bu- dolzarb masaladir. Shuning uchun ham biz bu dinlarni qiyosiy o'rganishimiz muhim ahamiyatga egadir.

To'rtinchidan, bizning hayotimizda bugungi kunda an'anaga aylangan yoki shunchaki diniy marosimga aylanib qolgan, boshqa dinlarda mavjud bo'lmagan ba'zi bir ma'rosimlarni o'rganish, tahlil qilish dolzarb masalalardandir;

Beshinchidan, bu boradagi tadqiqotlar nihoyatda kam o'rganilgani bois yanada chuqurroq o'rganilishga muhtoj.

Mavzuning maqsadi va vazifalari. O'zbekiston tarixnavislari hamda manbashunoslari oldida turgan asosiy vazifa bu - O'zbekiston xalqlari tarixini ishonarli va haqqoniy manbalar asosida yoritishdir. Buni Prezidentimiz 1998-yilda tarixchilar bilan bo'lgan uchrashuvda ham ta'kidlab o'tgan edilar. Prezidentimiz: "Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O'zgalar yozib bergan tarixni o'qitishga mutlaqo qarshiman. Mustamlakachi o'ziga qaram bo'lgan xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan? Ular bor kuch g'ayratlarini Turkistonning o'tmishini kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar"⁶ - deb, bejizga aytmaganlar. Shuning uchun ham milliy davlatchilik tariximizni ishonarli tarzda, o'zimiz yaratishimiz kerakligini his etishimiz zarur.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston davlatchiligidagi dolzarb masalalardan biri ilk diniy e'tiqodlar, zardushtiylikning aynan Xorazmda paydo bo'lganidan tortib bugungi kundagi jahon dinlari bilan o'xshash va farqli tomonlari, qiyosiy tahlilini o'z ichiga qamrab oladi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalari qilib quyidagilarni belgilab oldik:

Birinchidan, zardushtiylik dinining paydo bo'lish hududini, uning tarixiy ildizlarini tatqiq etish.

Ikkinchidan, zardushtiylik dinida mavjud bo'lgan ma'naviy-axloqiy tamoyillariga umumiy holatiga tavsif berish;

Uchinchidan, jahon dinlarining tashkil topishi va bu dinlarda mavjud

⁶ Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T. Sharq. 1998. B.32.

bo'lgan ma'naviy-axloqiy tamoyillariga umumiy holatiga tavsif berish;

To'rtinchidan, zardushtiylik dini va jahon dinlarining bosh g'oyalarini shuningdek, ularning urf -odat va marosimlarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish;

Beshinchidan, tadqiqot natijalariga asoslangan holda ilmiy xulosalar chiqarish;

Mavzning o'rganilganlik darajasi. Zardushtiylik dinini o'rganilganlik darajasiga keladigan bo'lsak, u haqida eng qadimiy manbalardan biri IX asrga oid "Denkard" (din amallari) asaridir. Unda Avestoning yigirma bir kitobi to'la ta'riflab berilgan. Bu ta'riflar: savobli ishlar yo'riqnomasi; diniy marosimlar va rasm rusmlar qoidasi; zardushtiylik ta'limoti asoslari; dunyoning Axuramazda tomonidan yaratilishi; oxirat kuni va undagi hisob-kitob; falakiyot; ijtimoiy-huquqiy qonun-qoidalar; Zardushtning tug'ilishi va bolaligi; haq yo'lini tutish; jamiyat a'zolarining haq-huquqlari; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o'qiladigan duolar, amallar va boshqalardan iboratdir. Shuningdek, Markaziy Osiyo hududida ham qadimdan bu dinni o'rganishga qiziqish kata bo'lgan. Shulardan biri Abu Rayhon Beruniyning "Osoru-l-boqiya" ("Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar") asarida (X asr) zardushtiylik dini haqida ancha mufassal fikr yuritiladi.

Zardushtiylikni o'rganish ayniqsa XVIII asrdan kuchaya boshladi. Bu borada, ayniqsa, ingliz olimlari Tomas Gaid, Jorj Buche; fransuz olimlari Anketil dyu Perron, Meri Boys; rus olimi K. Kossovich va boshqalarning tadqiqotlari hamon o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Tomas Gaid 1700-yilda nashr etilgan "Qadimgi eronliklar: parfiyan va midiyaliklar dinining tarixi" nomli kitobida "Avesto" haqida qimmatli ma'lumotlar yozgan. Jorj Buche esa 1723-yilda Hindistonda yashovchi Zardusht - forslardan "Avesto"ning bir qismini olgan va uni Oksford universiteti kutubxonasiga topshirgan.

London universitetining professori Meri Boys ko'p yillar davomida Hindistondagi zardushtiyalar jamoalari hayoti va urf-odatlarini o'rgangan. Bu haqda "Zardushtiyalar e'tiqodlari va urf-odatlari" nomli kitob yozib qoldirgan. Shuningdek, M. Boys 1963-64-yillarda Yazd vodiysi shimolidagi olib borgan dala-

qazilma ishlari vaqtida hozirgi zardushtiylarning e'tiqodlari va rasm-rusmlarini o'rgandi. Yuqoridagi ishlari natijasida Meri Boys 4 jilddan iborat "Zardushtiylik tarixi" nomli yirik ilmiy asarini tayyorladi va qisman nashr etdi.

Zardushtiylik dini haqida ingliz olimi Dj.Buger, ayniqsa fransuz olimi A.Dyupperon juda qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Masalan, A.Dyupperon 1755 yilda Hindistonga ilmiy safar qilib, u erdagi zardushtiylar orasida uch yil yashagan, ularning ibodatlari, urf-odatlarini yaxshi o'rgangan va Avestoni fransuz tiliga tarjima qilgan. Uch jildlik tarjima 1771 yilda nashr etilgan. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash joizki, olimlarimizning fikricha Avesto G'arbiy Evropa, Eron va Hindiston tillari orqali bizga etib kelgani uchun undagi nomlar, atamalar aksariyat hollarda asliga to'g'ri kelmaydi. Avestoda turkona jihatlar kam qolgan.

Bundan tashqari rus olimi K. Kossovich 1861- yilda "Avesto" haqida "Zendavestdan to'rt asar" nomli kitob yozgan. Shuningdek, xorijiy olimlardan amerikalik R. Fray ("Nasledie Irana"), fransuz sharqshunosi E.Benvenist, bel'giyalik professor J. Dyushen- Gyuyimen, shved eronshunoslari X. YU. Nyuberg va G. Videngran, daniyalik K. Barr, nemis olimi V. Xints asarlarini, shuningdek, olimlardan I. A. Aliev, V. I. Abaeva, M. A. Dandamaev, I. M. D'yakonov, V. A. Livshits, B. G'. G'afurov va boshqalarning asarlarini ko'rsatish mumkin⁷.

Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda zardushtiylik dinini o'rganishga kata e'tibor berilmoqda. Bu dinni o'rganishda akademik Mirsodiq Is'hoqov xizmatlari juda kata. Uning xizmatlari natijasida "Avesto"ning Vedevdod va Yasht kitoblari o'zbektiliga tarjima qilindi. Shuningdek, Yo'ldoshev Qodirjonning "Avestoda tarbiya masalalari", Narzulla Jo'rayevning "Avesto mo'jizasi" risolasi, Mahmudova Nargiz "Zardushtiylikda ma'naviy va axloqiy qarashlar", Mamayusupovning "Avesto huquqiy manba" kabi bir necha risolalari nash etilgan. Bundan tashqari, A.Qayumov, X.Hamidov, N. Rahmonov va boshqa olimlariz tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqotning ob'ekti va predmetining belgilanishi. Mavzuning okekti bu-

⁷ Qurbonov B. Tarixshunoslik. Umumiy majmua. Namangan. 2008. -B.55.

zardushtiylik, uning tamoyillari va jahonning boshqa dinlari tarixi bo'lsa mavzuning predmeti ushbu dinlarning ma'naviy-axloqiy jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu mavzu o'rganish chog'ida o'zim uchun juda ko'p yangiliklar qildim. Zardushtiylikning qanchalik qadimiyligi va u qaysi hududa paydo bo'lganiva qaysi hududlarga tarqalganini o'rgandim. Shuningdek, bugungi kundagi jahon dinlari bo'lmish buddaviylik, xristianlik va islom dini haqida muhim ma'lumotlar oldim. To'g'ri bu mavzular juda yaxshi o'rganilgan. Lekin biz zardushtiylik dinini jahon dinlari bilan qiyosiy tahlilida ma'lum darajada yangilik yaratdik. Misol uchun bugungi kundagi jahon dinlarining ma'lum urf-odatlarini, ma'rosimlari va ularning g'oyalari qayerdan paydo bo'lganini, uning "ajdodlari" qaysilar ekanini o'zim uchun yangilik qildim.

Ishning tuzilishi. Ushbu kurs ish kirish, 2 ta bob, 6 ta bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan tarkib topgan.

I.BOB. ZARDUSHTIYLIK VA JAHON DINLARI, UMUMIYLIK VA O'ZIGA XOS JIHATLAR

1.1. Jahon dinlari, ularning tarqalish xususiyatlari, umumiy va xos jihatlari qiyosiy tahlili

Bu mavzuga kirishishdan oldin “din o‘zi nima?”, “nega biz bunga muhtojmiz?” degan savollarga javob berib olishimiz kerak. Din-muayyan ta’limotlar, his-tuyg‘ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo‘ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o‘ziga xos usuli.⁸ “Din” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida “ishonch”, “ishonmoq” degan ma’nolarni anglatadi. Shuningdek, din - “itoat, parhez, e’tiqod, hisob, jazo, mukofot, hukm, yo‘l tutish” ma’nolarini ham bildiradi.⁹ Dunyoda dini, ishonchi bo‘lmagan biror millat (xalq) yo‘q. Chunki biror millat dinsiz yashay olmaydi.

Har qanday din o‘z homiylari uchun to‘ldiruvchilik, ovutuvchilik (kompensatorlik) vazifasini bajaradi. Masalan, insonda doimiy ehtiyoj hosil bo‘lishi hodisasini olaylik. Inson hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlari jaroyanida shaxsiy va ijtimoiy ehtiyoj, maqsadlarga yetishishi qiyin, ilocsiz bo‘lib ko‘ringanda bunday ma’naviy- ruhiy ehtiyoj vujudga kelgan. Chunki inson hayotida quvonchli yoki tashvishli onlarida, orzular ro‘yobga chiqishi ilocsiz bo‘lgan paytda doimo dindan najot izlaydi. Insoniyatning dinga ehtiyoji jamiyat bo‘lib yashash talablarida boshlangan va din bu o‘rinda ma’naviy- ruhiy ehtiyojni qondiruvchi tasalli beruvchilik vazifasini bajaradi.

Muayyan din o‘z ta’limot tizimini vujudga keltirgach, o‘ziga e’tiqod qiluvchilar jamoasini shu ta’limot doirasida saqlashga harakat qiladi. Bu ijtimoiy hodisa dinning birlashtiruvchilik (integratorlik) vazifasi deb ataladi. Bunda din ijtimoiy, etnik va ma’naviy hayotning o‘z ta’siri doirasida bo‘lishini ko‘zda tutadi. Masalan, islom o‘tmishda Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayotiga, ahloqiy

⁸ Jo‘rayev U.T. Dunyo dinlari tarixi. -T., 2006. -B.6.

⁹ Ahmad Muhammad Tursin. Islom dini, -T., 2013. -B.3.

munosabatlariga, hattoki adabiyoti va san'atiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Xristianlikda ham e'tiqod qiluvchularni unga yanada ko'proq jalb etish uchun diniy, me'moriy, tasviriy san'at, musiqadan unumli foydalaniladi.

Dinning integrativ vazifasi jamiyat a'zolarini - ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeyi, millati kabi xususiyatlaridan qat'i nazar - birlashtiruvchi kuch ekanligida namoyon bo'ladi. Integrativ yoki funksionalistik yondashuvning asoschilaridan biri E. Dyurkgeymning fikricha, din xuddi yelim kabi kishilarni umumma'naviy qadriyatlar, e'tiqod, urf-odat va an'analar asosida birlashtirishga, yaxlit bir majmuaga aylantirishga xizmat qiladi. E. Dyurkgeym ayniqsa diniy sig'inish masalasiga alohida e'tibor beradi¹⁰.

Uningcha, din sig'inish orqali jamiyatni bir butun qiladi, shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi va itoat etishga undaydi, ijtimoiy yaxlitlikni mustahkamlaydi, an'analarni qo'llab-quvvatlaydi, kishida qanoat hosil qiladi.

Din dindorlar hayotini tartibga solish, nazorat qilish (regulyatorlik) vazifasini bajaradi. Har qanday dinlarning, ma'lum urf odat, marosim va bayramlari bo'lib, ularni o'z vaqtida, diniy ta'limot va talab asosida bajarilishi shart qilib qo'yiladi. Masalan, islom dinida kuniga besh vaqt namoz o'qilishi, har hafta juma namozini ado etilishi, ramozon oyida bir oy ro'za tutilishi musulmonlarning hayot tarzini tartibga solib turadi.

Din aloqa, bog'lovchilik (kommunikativ) vazifasini bajaradi. Dinning bu vazifasi orqali dindorlarning birligi, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqasi ta'minlanadi. Bunda muayyan dinga e'tiqod qiluvchi kishi shu dindagi boshqa kishilar bilan bog'liq bo'lishi, urf-odat va ibodatlarini jamoa bo'lib ado etishi ko'zda tutiladi. Cherkov, machit va boshqa diniy tashkilotlar dinning bu vazifasini amalga oshirishga ko'maklashadi, ayni paytda bu holatni nazorat qiladi.

Bugungi kunda jahon dinlari deb ataydigan dinlar mavjuddir. Chunki bu dinlar biror xalq yoki biror davlat hududida emas, balki dunyoning har yerida tarqalgan dinlardir. Bular quydagilardir.

Buddizm. Buddizm - dunyodagi eng yirik dinlar ichida qadimiylaridan biri

¹⁰ Narbekov A. V. Dinshunoslik asoslari. T., 2007. B. 19.

hisoblanib, mil. av. VI - V asrlarda Xindistonda vujudga kelgan. Bu dinga e'tikod qiluvchilar, asosan, Janubiy, Janubi-Sharkiy va Sharkiy Osiyo mamlakatlari: Shri Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kambodja, Birma, Tailand, Laosda va kisman Evropa va Amerika kit'alarida, Rossiya Federatsiyasining Tuva, Buryatiya, Kalmikiston respublikalarida istiqomat qiladilar. Xozirgi kunda e'tiqod qiluvchilar soni jixatidan buddizm xristianlik, islom va xinduizmdan so'ng turtinchi urinni egallaydi. Buddistlarning soni taxminan 700 mln. atrofida bo'lib, ulardan 1 mln. ga yaqini rohiblardir¹¹.

Buddizm tarixi tadqiqotchilari mavjud manbalar asosida bu oqim asoschisi real tarixiy shaxs ekanligini ta'kidlaydilar. Bu ta'limot to'g'risida xabar beruvchi adabiyotlarda u Siddxartxa, Gautama (Gotama), Shakyamuni, Budda, Tadxagata, Djina, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etiladi. Bu ismlar ma'nolari quyidagicha: Siddxartxa - shaxsiy ism, Gautama – urug' nomi, Shakyamuni – “Shakya qabilasidan chiqqan donishmand”, Budda – “nurlangan”, Tadxagata – “shunday kelib, shunday ketgan”, Djina – “g'olib”, Bxagavan – “tantana qiluvchi”¹². Ular ichida eng mashxuri “Budda” bo'lib, shundan ushbu dinga buddizm nomi berilgan.

Bizgacha Buddaning bir necha biografiyalari yetib kelgan: “Maxavostu” - milodning II asrida yozilgan, “Lalitavistara” - milodning II-III asrlarida yuzaga kelgan, “Buddxacharita” buddist faylasuflardan biri Ashvagxosha tomonidan milodning I asrlarida yaratilgan, “Nidanakatxa” - milodning I asrida yozilgan va “Abnixishkramansutra”. Mazkur biografiyalarda Buddaning qaysi yillarda yashaganligi turlicha berilgan. Ularda mil. av. IX - III asrlar oraligidagi xar xil muddatlar ko'rsatiladi. Rasmiy hisobga ko'ra, Budda mil. av. 623-yilda tug'ilib, 544-yilda vafot etgan¹³. Biroq, ko'pchilik tadqiqotchilar uning tavalludi mil. av. 564-yilda, vafoti esa 483-yilda deb hisoblaydilar. Ba'zan 560 va 480 deb yaxlit sonlar bilan kursatadilar. Aytish joizki, yuqorida zikr kilingan biografiyalarda Buddaning haqiqiy hayoti bilan uning haqidagi afsonalar o'zaro qorishib ketgan.

¹¹ Internet ma'lumoti. www.Ziyo.uz

¹² Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. Akademiya nashriyoti. -T., 2007. -B.74.

¹³ Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi darslik. -T., 2006. -B.78.

Siddxarta Shakya qabilasining (Kapi Lvasa podsholigi)¹⁴ podshohlaridan biri Shuddxodananing o'g'li edi. Uning saroyi Himolay tog'lari etagida Kapilavasti degan shaharda bo'lgan (hozirgi Nepal xududida)¹⁵. Onasi - malika Mayya. Podsho o'g'lini orzu-havaslar og'ushida tarbiyalab, uni hech bir kamchiliksiz katta qiladi. Siddxarta ulg'ayib qo'shni hukmdorlardan birining qizi Yashadxaraga uylanadi va o'g'il ko'rib, unga Raxula deb ism qo'yadi. Hech bir qiyinchilik va kamchilik ko'rmay o'sgan bola Siddxarta bir kuni ittifoqo bir keksa chol, bir bemor hamda og'ir mashaqqat tortayotgan rohibni uchratadi, bir kishining esa vafotiga guvoh bo'ladi. Bundan qattiq ta'sirlangan shahzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo'llarini izlash uchun saroyini tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U beshta rohib bilan qishloqma-qishloq kezib yuradi. Shu asnoda Siddxarta bir narsaga amin bo'ldi: bu yo'l uni o'z oldiga qo'ygan maqsad, ya'ni insoniyatni azob-uqubatdan qutqarish sari olib bormaydi va u rohiblar jamoasidan ajraladi.

Birmuncha changalzor, o'rmonlarda kezib, horib charchagach, bir daraxtning tagida dam olish uchun o'tiradi va o'zicha, to haqiqatni topmaguncha shu yerdan turmaslikka qaror qiladi. Bu o'tirishning 49 kuni uning qalbidan "Sen haqiqatni topding" degan sado keladi. Shu paytda uning ko'z oldida butun borliq namoyon bo'ladi. U hamma joyda shoshilish, qayoqqadir intilishni ko'radi: hech bir joyda osudalik yo'q edi. Hayot nihoyasiz uzoqlikni ko'zlab o'tib ketayotgan edi. Mana endi Budda kimga qarshi kurashish kerakligini angladi. Shu ondan u Budda - nurlangan deb ataldi. U tagida o'tirgan daraxt esa - nurlangan daraxt (bogpxa) deb atala boshlandi. Ushbu rivoyat budda dining muqaddas kitobi uch savat donolik ("Tripitaka") da keltirilgan¹⁶.

Budda o'zining birinchi da'vatini Varanasi yaqinidagi Rishipatana bog'ida o'zining besh rohib do'stlariga qildi va ular Buddaning birinchi shogirdlari bo'ldilar¹⁷.

¹⁴ Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi darslik. -T., 2006. --B.79.

¹⁵ O'sha asar. -B.78

¹⁶ O'sha asar. -B. 79

¹⁷ Буддизм. Словар. -М., 1992.г. -С. 32

Shu kundan boshlab Budda o'z shogirdlari bilan qishloqma-qishloq yurib, o'ziga yangi izdoshlar orttiradi. Budda 40 yil mobaynida Hindistonning turli joylarida bo'ladi, odamlarga o'z g'oyalarini yetkazadi va singdiradi. Budda 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o'tadi. Uning jasadi, hind udumiga ko'ra, kuydirilib, hoki 8 ta buddist jamoalariga bo'lib yuborildi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona (stupa) barpo etdi¹⁸.

Vaqlar o'tishi bilan Buddaning hayoti haqida turli asotirlar paydo bo'la boshladi. Ularning ba'zi birlarini mavzu doirasida ko'rib chiqamiz. Budda ko'p yillar davomida yer yuzidagi turli mavjudotlar qiyofasida qayta tug'ilgan: 84 marta ruhoniy, 58 marta shoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g'oz, 6 marta fil, shuningdek, baliq, qurbaqa, kalamush, quyon qiyofalarida qayta tug'ilgan. Jami 550 marta qayta tug'ilgan. U doimo qayerda, qay qiyofada tug'ilishini o'ziga o'zi belgilagan¹⁹.

So'nggi marta uni xudolar insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar. Bu afsonalarning ba'zilariga ko'ra, yer yuzida Gautamaga qadar 6 ta Budda o'tgan. Shuning uchun buddizmning ba'zi muqaddas joylarida 7 ta ibodatxona barpo etilgan. 7 ta Bodxa daraxti o'tqazilgan. Ba'zi afsonalar 24 ta Budda avlodi o'tgan desa, ba'zilar minglab buddalar o'tgan deb da'vo qiladi.

Xristianlik. Yana bir jahon dinlaridan biri xristianlik dinidir. Xristianlik paydo bo'lishi davriga ko'ra ikkinchi jahon dinidir. Ushbu din tarafdorlarining miqdori boshqa dinlarga qaraganda eng ko'p bo'lib, bu ko'rsatkich dunyo aholisining deyarli uchdan birini (taqriban 28 foizi) tashkil etadi.

Xristianlik asosan, Yevropa, Amerika, Avstraliya hamda qisman Afrika va Osiyo qit'alarida tarqalgan. Xo'sh endi xristianlik dinining paydo bo'lishiga to'xtaladigan bo'lsak. Xristianlik milodning boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida joylashgan Falastin yerlarida vujudga keldi. Tarixdan bizga ma'lumki, milodnin boshlarida dunyodagi eng ulkan davlat - Rim imperiyasi edi. Rim dunyoning katta qismini, sh jumladan, Falastinni ham ishg'ol etgan edi²⁰. Biroq

¹⁸ Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi darslik. -T., 2006. -B.79.

¹⁹ Буддизм. Словар. -М., 1992. -С. 33

²⁰ Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi darslik. -T., 2006. -B.87.

ayni paytda, bu ulkan imperiya tanazzulga yuz tutmoqda edi. Chunki hukmron quldorlik ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiyotning to'sig'iga aylanib ulgurgan edi. Natijada imperiya iqtisodi yemirila boshlangan. Hukmron tabaqalar imperiya inqirozining oldini olishga harakat qilib, yangi-yangi hududlarni bosib olishni davom ettirganlar. Mazlumlarni ezishni yanada kuchaytirganlar. Biroq bular imperiyani yanada holdan toydirgan Chunki, biz bilamizki, yangi hududlarni bosib olish, va mazlumlarni doimiy itoatda tutis juda katta mablag' talab etar edi.

Xo'sh, bu dinning paydo bo'lishiga qanday zarurat bor edi? Rim hukmron tabaqalari mustamlakalarni itoatda tutish, ularga daxshat solish maqsadida ularning mavjud tartibga qarshi har qanday harakatlarini shafqatsizlik bilan bostirganlar. Mazlumla kuras yo'li bilan ozod bo'lishda umidlarini butunla uzi qo'yganlar. Ular ilohiy xaloskordangina madad kuta boshlaganlar. Bu paytda jamiyat uchun milliy va tabaqa chegaralarini tan olmaydigan, barcha azob-uqubat chekayotganlarga, mazlumlarga taskin bera oladigan, ularni bu azob-uqubatlardan, zulmlar dunyosida boshqa dunyoga olib keta oladigan yangi din zarur edi. Shu tariqa xristian dini paydo bo'ldi va qullar orasida keng tarqaldi. Shu ma'noda xristian din dastlab mazlumlar dini bo'lgan.

Iso Masih (Iisus Xristos), Bibliyaning xabar berishicha, xristianlik ta'limotining asoschisi bo'lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747-yili Falastinning Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi. Yangi eraning boshlanishi ham Iso Masihning dunyoga kelishi bilan bog'liq. Shu o'rinda Iso Masih tug'ulishi haqida gapirsak. Diniy rivoyatlarda aytilishicha farishta Gavriil (Jabroil)²¹ xudojo'y qiz Maryamning oldiga kelib, xudo unga kutilayotgan xaloskorning onasi bo'lishini ato etganligini xabar qiladi. Kunlardan bir kun Maryam huzuriga muqaddas ruh tushib kelad va Maryam iffat saqlangan holda muqaddas bolaga og'iroyoqli bo'ladi. Uning payg'ambarlar avlodidan bo'lgan eri Iosif (Yusuf) Gavriil tomonidan bu haqda ogohlantirilgan edi. Ko'p o'tmay, Maryam odamzotning xaloskorini dunyoga keltiradi va unga Iso deb nom qo'yiladi. Yahudiyaning zolim hukmdori Irod bashorat qilingan

²¹ Христианство Словар. -М., Издательство.Республика. 1992. -С.100.

xaloskorning tug'ilganligidan xabardor bo'ladi va o'zjazo kuchlariga Vifleysmda yangi tug'ilgan chaqaloqlarning hammasini qilichdan o'tkazishni buyuradi. Biroq xudo yuborgan farishta Iosif (Yusuf) oilasini qutqarib qoladi. Maryam o'z o'g'li bilan Misrga qochirib yuboriladi²². Shundan keyin Iso uzoq vaqt o'zini ko'rsatmaydi. Faqat 30 yoshga yetgandan keyingina Iso Masih nom bilan yangi dinni targ'ib etishga kirishadi. Bu ishda unga shogirdlari apostollar (arabchada havoriylar) yordam berishadi.²³ Isoning targ'iboti haqidagi xabarni payg'ambar Ioann yurtga ma'lum qiladi. Iso va uning shogirdlari Iordan daryosi yaqinida Ioann bila uchrashadilar. Ioan ularni suvda yuvintirib cho'qintiradi. Iso Masih mamlakatni kezib chiqadi. Bu faoliyat davomida u juda ko'p mislsiz mo'jizalar ko'rsatgan. Ya'ni o'liklarni tiriltirgan, ko'rlarni, mayib-majruhlarni va aqldan ozgan kishilarni davolagan. Iso targ'ibotchilik va shifokorli faoliyati bilan 3 yil shug'ullangan²⁴. Uning muvaffaqiyatlarida darg'aza bo'lgan Quddus (Yahudiya poytaxti) ruhoniylari uni sudga berishga qaror qilganlar. O'z shogirdlaridan birining sotqinligi tufayli Iso dushmanlari qo'lga asir tushib qoladi va o'lim jazosiga hukm qilinadi. Quddus aholisi esa Isoni xudoning o'g'li va odamzotning xaloskori ekanligini tan olmaydilar hamda uni toshbo'ron qiladilar. Iso Galgofa tog'ida qiynab o'ldiriladi. U juda katta yog'och xochga tiriklayin mixlab tashlanadi. Uch kunlik qiynalishdan so'ng, Iso 33 yoshida vafot etadi. Biroq tezda buyuk mo'jiza sodir bo'ladi. Iso o'limining uchinchi kuni tiriladi. Biroz vaqt shogirdlari bilan bo'lgach, ularning ko'z o'ngida osmonga uchadi. Xristianlik ta'limotiga ko'ra, Iso hayotining diniy talqini qisqacha ana shunday.

Bu dinni tarqalishiga keladigan bo'lsak, vaqt o'tishi bilan xristianlik dini hukmron tabaqalar diniga ham aylana borgan. Bunga imperiyaning tobora zaiflashib borayotganligi sabab bo'lgan. Bunday sharoitda imperatorlar uchun ham imperiya xalqlarini bo'lib yuboradigan emas, aksincha, ulami birlashtiradigan, bir - biriga yaqinlashtiradigan din zarur edi. Imperator Konstantin xristianlikni qabul qilish Rim imperiyasi mutlaq hukmdori darajasiga ko'tarilish uchun eng muhim

²² Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. -T., Akademiya nashr, 2007. -B.96.

²³ Ma'sudxon I. Tarixiy atamalar lug'ati. -T., Akademiya nashr, 2013. -B.37.

²⁴ Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. Akademiya nashr. -T., 2007. -B.96.

vosita ekanligini hammadan ko'ra ko'proq anglab yetgan. Shuning uchun ham 324-yilda xristianlikni davlat dini, deb e'lon qilgan²⁵. 325- yilda esa, uning ko'rsatmasi bilan jahon xristianlarining birinchi yig'ini (sobori)²⁶ chaqirilgan. Soborda ruhoniylar va ilohiyotchilar xristianlikning asosiy aqidalarini tasdiqlaganlar. Xristian cherkovini davlat cherkovi, deb e'lon qilib, cherkov qonun-qoidalari yozilgan kitoblarni tasdiqlaganlar. Xristianlik aqidalarini to'la tasdiqlash 451-yilgacha davom etgan. Buning uchun yana uch marta (381, 431 va 451-yillarda) xristianlarning soborlarini o'tkazishga to'g'ri kelgan²⁷.

Endi xristianlik dinining nomlanishi va uning sabablarini keltirib o'tsak. Dastlab, Iso nomiga qo'shiluvchi "Masih" so'zi qadimiy yaxudiy tili - iyarshidagi meshiax so'zidan olingan bo'lib, "silangan" yoki "siylangan" ma'nolarini beradi. Yunon tilida bu so'z "xristos" shakliga ega. Bu dinning "xristianlik" yoki "masihiylik" deb atalishi ham shu so'zlar bilan bogliq²⁸. Bundan tashqari, xristianlikni Iso Masihning tug'ilgan qishlog'i – "Nazaret" bilan bog'lab, nazroniya deb ham ataganlar. Keyinchalik bu nom nasroniya shaklini olgan. Iso Masih o'z ta'limotini 12 o'quvchisiga - apostollar (havoriylar)ga o'rgatdi. Ular esa Isoning vafotidan keyin ustozlarining ta'limotlarini har birlari alohida-alohida tarzda kitob shakliga keltirdilar. Bu kitoblar Bibliyaning "Yangi Axd" qismini tashkil etadi.

Shu o'rinda xristianlikning muqaddas kitobiga to'xtalib ketsak. "Bibliya" (arab tilida "Injil") ning ikkinchi qismi "Yangi Ahd" qismi xristianlikning muqaddas kitobidir²⁹. Ushbu kitobda Isoning gunohkorlar o'rniga qurbon bo'lib, to'kkan qoni asosida kuchga kirgan abadiy tinchlik bitimi va bu bitimning shartlarini o'z ichiga olgan. Xristianlik ta'limoti dastlab og'zaki tarqalgan. Bu kitobni Iso Masihning havoriylar yozishgan. Ular Iso Masihni ko'rib yaqindan bilgan kishilar bo'lgan (Eslatma islom dinida bu kishilar "sahobalar" deb nomlanadi). "Injil"ning dastlabki 4 kitobi Iso Masihning hayoti va ta'limotiga

²⁵ Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi.darslik. -T., 2006. B.88.

²⁶ Ma'sudxon I. Tarixiy atamalar lug'ati. -T., Akadeniyanashr.2013. B.194.

²⁷ Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi.darslik. -T., 2006. B.88.

²⁸ Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari.Akademiya nashr. -T., 2007. B.95.

²⁹ Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi. darslik. -T., 2006. B.92.

bag'ishlangan. Bu 4 Injil kitobi xavoriylar - Matto, Luko, Markus hamda Yuhanno tomonidan yozilgan³⁰. Ular Iso Masih to'g'risida batafsil ma'lumot berganlar. "Havoriylarning faoliyati" nomli kitobchada esa havoriylarning Xudo qudrati bilan qilgan ishlari, nutqlari, quvg'inga uchrashi, Iso Masih xushxabarining Quddusdan dunyoning boshqa joylariga ham tarqalishi, dastlabki Masih jamoatlari haqida hikoya qilinadi. "Yangi Ahd" 27 kitobdan -4 ta Injil (xushxabar), havoriylarning faoliyati, 21 maktub va Ioann (Yuhanno) "Vahiynomasi" dan iborat³¹.

21 maktubni aziz avliyolar Pavel, Yoqub, Pyotr, Yuhanno, Yahudolar turli joylardagi kishilarga va jamoatlarga yozganlar. Ularda masihchilikning asosiy aqidalari bayon qilingan. Ioann (Yuhanno) Vahiynomasida aziz avliyo Ioangga xudo yo'llagan bashoratlar bayon etilgan. U oxirzamonda yuz beradigan musibatlarga, Iso Masihning yer yuziga qaytishiga, qiyomat kuniga, jannat va do'zax kabi masalasiga bag'ishlangan³².

Xristianlik oqimlari. Boshqa dinlarda bo'ganidek, xtistianlik dinda bir necha oqimlari mavju do'lib, bularga katolik, pravaslav, protestantlik oqimlarini misol qilib olishimiz mumkin. Bu bo'linish qaysi davrda amalga oshirildi va bung anima zaruriyat bor edi degan savollarga javob olishimiz kerak. Bizga tarixdan ma'lumki, 395- yilda benihoya murakkab ichki ziddiyatlar va tinkani quritadigan tashqi hujumlar oqibatida Rim imperiyasi ikkiga -G'arbiy (Rim) va Sharqiy (Vizantiya) imperiyalarga bo'linib ketgan. 476- yilda G'arbiy Rim imperiyasi butunlay qulagan. Uning xarobalari o'rnida qator mustaqil davlatlar qaror topgan. Vizantiyada esa imperatorlik hokimiyati saqlanib qolgan. Shu tariqa, sobiq yagona Rim imperiyasining g'arbiy va sharqiy qismlari V asrning 2-yarmidan boshlab turli taraqqiyot yo'lini boshdan kechira boshlagan. Xususan, sobiq imperiyaning g'arbiy qismida yangi tartib -feodal tartiblar tez qaror topa boshlagan. Ayni paytda, bu o'lkada tashkil topgan yangi mustaqil davlatlar ham mustahkam emas edi. Bu holat G'arbiy Rim cherkovining davlat ijtimoiy

³⁰O'sha joyda

³¹ O'sha joyda

³² O'sha joyda

hayotidagi mavqeyini kuchaytirib yuborgan. Rim cherkovi boshlig'ining nufuzi haddan ziyod o'sib borgan. Keyinchalik, u Rim papasi, deb atala boshlangan. U Isoning yerdagi noibi, din va axloq ishlarida gunohdan xoli, uning hokimiyati jahon soborlari hokimiyatidan yuqori turadi, deb e'lon qilingan. Natijada, Papa shunday katta hokimiyatga ega bo'la borganki, G'arbiy Rim imperiyasi o'rnida tashkil topgan davlatlarning qirollari o'zlarini hatto Papaning vassallari, deb tan olishga majbur bo'lganlar. Rim cherkovi istalgan odamni, butun bir viloyatni va hatto butun bir davlatni cherkovdan rad eta olardi. Bunday hol ro'y berganida o'sha viloyat yoki davlatdagi ibodatxonalar bekitilgan. Tug'ilgan chaqaloqlarga ism berilmagan. Vafot etganlar esa qabristonga ko'milmagan. Natijada, viloyat hokimlari yoki davlat hukmdori Rim papasiga tavba qilib kelgan. Cherkovdan rad etilgan odamni esa talash va hatto o'ldirish mumkin bo'lgan. Hech kimning bunday odamga yordam yoki boshpana berishga haqqi bo'lmagan. Xo'sh, Sobiq Rim imperiyasining sharqiy qismida joylashgan Vizantiyada ahvol qanaqa edi? Sharqiy imperiya -Vizantiyada esa cherkovning ahvoli mutlaqo boshqacha edi. Vizantiya cherkovi Rim cherkovi kabi hokimiyatga ega bo'lmagan. U amalda davlatning bir muassasasiga aylanib qolgan. Vizantiyada, hatto soborlarning qarorlari ham imperatorning maxsus farmoyishi bilan tasdiqlangandan keyingina kuchga kirgan. Bunga Vizantiyada kuchli imperatorlik hokimiyati saqlanib qolganligi sabab bo'lgan. Rim cherkovi asrlar davomida Vizantiya cherkovini bo'ysundirishga har qancha urinmasin, buning uddasidan chiqa olmagan. Bundan tashqari, bu ikki cherkov boshqa davlatlardagi xristian cherkovlarini o'zlariga bo'ysundirishga ham uringanlar. Bu hol ularning munosabatlarini yomonlashtirib yuborgan. Xristianlik aqidalarini turlicha talqin etish esa, bu ikki cherkov munosabatlarini yanada keskinlashtirib yuborgan. Natijada 1054-yilda Rim papasi Lev IX bilan Konstantinopol patriarxi Kirulariy bir-birini anafema(yunonchada rad qilish, haydash. Xristianlikda cherkovni dindan qaytgan deb e'lon qilinishi. Bu so'z VI asrda Laodikiya va Elvira soborlarida muomalaga kiritilgan)³³ qilganlar. Buning oqibatida xristianlik ikkiga

³³ Ma'sudxon Ismoilov Tarixiy atamalar lo'g'ati. Akadeniyanashr T.,2013. B.29.

bo'linib ketgan. Ulardan biri -Rim papasiga bo'ysunuvchi katolik cherkovi deb, ikkinchisi esa Konstantinopol patriarxiga bo'ysunuvchi pravoslavlik cherkovi, deb nom olgan.

Xo'sh bu ikki oqim nimalari bilan bir-biri bilan farq qilar edi? Pravoslavlik haqida gapiradigan bo'lsak. Pravoslavlik (chin e'tiqod) Rim imperiyasi 395- yilda Vizantiyada davlat e'tiqodi maqomiga ega bo'lgan³⁴. Bugungi kunda pravoslavlik dunyoning barcha yerida mavjuddir. Ayniqsa, Sharqiy Yevropada va Yaqin Sharqda keng tarqala boshlagan. Endi bu oqim tarixi haqida so'z yuritsak. Bu oqimni tarixini 988-yilda Rus davlati xristianlikning shu oqimini qabul qilganligi bilan boshlasak hech shubhasiz bo'lar edi. Bu Rus tarixida katta ijobiy hodisa edi. Chunki birinchidan Rus endi Yevropa davlatlari bilan yaqinlashish imkoniga ega bo'lgan. Ikkinchidan, Vizantiyaning ko'p asrlik ilg'or madaniyati Rus madaniyatining bundan keyingi taraqqiyotiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bugungi kunda Rus pravoslavlik cherkoviga Moskva va butun Rus patriarxi boshchilik qiladi. Pravoslavlik dunyo bo'yicha yagona diniy markazga ega emas. Binobarin, pravoslavlik cherkovining yagona boshlig'i ham yo'q. Bugungi kunda pravoslavlikda 15 ta mustaqil (avtokefal) cherkov- Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Rus, Gruzin, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Yunoniston, Alban, Polyak, Chexiya va Amerika mavjud³⁵. Ular o'rtasida turli masalalarda tafovutlar bo'lsa-da, davrimizning dolzarb muammolarini baholashda o'zaro hamkorlik qiladilar. 1961-yildan buyon umumpravoslav kengashi o'tkazilib kelinmoqda.

Xristianlik dinining yana bir oqimi katolik oqimi bo'lib, bu oqim haqida ma'lumot berib o'tsak. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, katoliklik oqimi 1054-yilda xristianlikning bo'linishi oqibatida paydo bo'lgan. Katolik cherkovi yagona markazga ega. Unga Rim papasi rahbarlik qiladi. Papaning qarorgohi Italiyada joylashgan bo'lib, bu joy Vatikan deb ataladi. Vatikan 1929- yildan boshlab shahar-davlat maqomiga ega. Uning hududi 44 gektarni tashkil etadi. Vatikan

³⁴ Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi. darslik. T., 2006. B.94.

³⁵ Internet ma'lumoti. www.Ziyo.com.

hududida turli saroylar va ibodatxonalar, shu jumladan, mashhur muqaddas Pyotr sobori -katoliklar olamining asosiy cherkovi joylashgan. Vatikan jami katolik cherkovlarining markazi bo'lib, Rim papasi ana shu yerdan turib ularga rahbarlik qiladi. Vatikan boshlig' bo'lgan Rim papasi -mutlaq monarxiya hokimiyatiga ega. Papa kardinallar, ya'ni ruhoniylarning oliy vakillari kollegiyasi tomonidan umrbod muddatga saylanadi. Papalik mansabiga nomzod bo'lgan ruhoni ovozlarining kamida 2/3 qismini va yana ortiqcha bir ovoz olishi kerak. Saylovdan o'tgan nomzod o'zining ilgarigi ismidan voz kechadi va o'ziga yangi ism oladi. Bugungi kunda Rim papasi Polsha ruhoniysidir. U Pavel Ioann II nomi bilan ataladi. Vatikanning ma'muriy ishlarini Papa tayinlaydigan kardinallar komissiyasi va gubernator boshqaradi³⁶. Cherkov va siyosiy ishlar bilan Rim kuriyasi (hukumati)³⁷ shug'ullanadi. Kardinal kuriya boshlig'i (bosh ministr) hisoblanadi, u ayni paytda tashqi ishlar ministri hamdir. Vatikan 100 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqa o'rnatgan. U BMT a'zosi. Uning o'z bayrog'i, madhiyasi, puli, markasi, qamoqxonasi, jandarmeriyasi, tribunali mavjud. Mingdan ortiq fuqarosi bor. Katoliklik bugungi kunda xristianlikning eng ko'p tarqalgan oqimi bo'lib qolmoqda. Katoliklarning asosiy ko'pchiligi G'arbiy Yevropa va Lotin Amerikasi, Afrika mamlakatlaridir. Shuningdek, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Kuba, Boltiqbo'yi respublikalari, Belarus va G'arbiy Ukrainada ham katoliklikka e'tiqod qiluvchilar mavjud³⁸.

Shuningdek, Xristianlikning Protestantlik oqimi ham mavjud bo'lib, bu oqim Rim papasini indulgeniya va boshqa ishlari uchun norozilik tariqasida Germaniyada 1517-yilda M.Lyuter tomonidan isloh qilingan.³⁹ Reformatsiya faqat Germaniyagagina emas, balki boshqa davlatlarga ham yoyilgan. XVI asrning o'rtalariga kelib Shveytsariya, Angliya, Shvetsiya, Daniya va Norvegiya davlatlari

³⁶ Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi. darslik. T., 2006. B.95.

³⁷ Ma'sudxon Ismoilov Tarixiy atamalar lo'g'ati. Akadeniyanashr, T.,2013.Ushbu kitobning 231-betida Kuriya so'ziga ta'rif berib o'tadi. Unda Qadimgi Rim aholishining eng ko'hna bo'linmalaridan biri. Rimliklar tasavvuricha Romul aholini uchta tribaga bolgan,tribalarni har birini 10 tadan kuriyaga bo'ladi.30ta kuriyadan har biri xalq yig'inida,kuriyat a'zolari bittadan ovozga ega bo'lgan.Kuriyalar dastlabki qo'shin tuzulishini ham asosi bo'lgan.

³⁸ Internet ma'lumoti. www.Ziyo.com.

³⁹ Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi. darslik. T., 2006. B.97

ham katoliklikdan chiqqanlar va protestantlikka o'tganlar. Protestantlik Belgiya, Gollandiya va Fransiya ham kirib borgan va Sharqiy Yevropa -Chexiya, Vengriya va Polshaga ham yoyilgan. XVII asrdan boshlab u Shimoliy Amerikaga va Yevropa davlatlarining boshqa mustamlakalariga ham yoyila boshlagan. 1948-yilda dunyodagi 44 mamlakatning 147 protestantlik cherkovini birlashtirgan jahon cherkovlari kengashi tuzildi⁴⁰.

Xulosa qilib aytganda, xristianlik dini bugungi kundagi dunyo dinlarining eng yirigi va paydo bo'lish davriga ko'ra ildizi qadimiy hisoblanadi. Bu dinning boshqa dinlar(buddaviylik, zardushtiylik, islom dini) bilan uzviy aloqadadir. Bu aloqalikni biz zardushtiylik dini bilan aloqalarini kiyingi boblarda ko'rib o'tamiz.

Islom dini. Islom dunyoda keng tarqalgan jahon dinlaridan biridir. Unga hozirgi davrda Yaqin va O'rta Sharqda Saudiy Arabistoni, Ummon, Yaman, Birlashgan Arab Amirliklari, Iroq, Suriya, Iordaniya, Turkiya, Eron, Afrikada Misr, Liviya, Tunis, Jazoir, Marokash, Sudan, Samoli, Osiyoda Pokiston, Afg'oniston, Bangladesh, Indoneziya, Markaziy Osiyo respublikalari, HDM va Kavkaz orti va Shimoliy Kavkaz, Volga bo'yi respublikalari va hokozolarda yashaydigan aholi kiradi. Musulmonlarning hozirgi umumiy soni taxminan bir milrd. olti yuz mlnga yaqin deb hisoblanmoqda. Islom dinininng tarixi ya'ni qanday paydo bo'gani, uning payd bo'ishi uchun qanday muhtojlik paydo bo'lganini birma-bir ko'rib o'tsak. Islom VI asr oxiri VII asr boshlarida Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan. VI asrda u ancha kengayib, savdo markaziga aylangan. Hijozdan o'tadigan savdo yo'li Makka ham yaqin bo'lib, asta-sekin u ham savdo markazlaridan biriga aylangan. Unda yarmarka o'tkazila boshlagan. U atrofdagi qabilalarga, boshqa shaharlarga qaraganda, yarim orol markazida joylashganligi, zam-zam bulog'i borligi uchun yaqinroq, kuchliroq ta'sir eta boshlagan. Arab qabilalari ma'jusiylilikning bir turi bo'lgan fetishizmga sig'inib, Makka, hususan undagi Ka'ba ularning diniy markaziga aylangan. Ular bu shaharga savdoga kelib o'z sanamlarini ham ziyorat qilib turganlar. Xulosa shuki, islomning paydo bo'lishi arafasida Arabiston yarim orolidagi ijtimoiy-iqtisodiy

⁴⁰ Internet ma'lumoti. www.Ziyo.com.

sharoitlar hali ancha zaif bo'lib, urug'-qabilachilik tuzumi, patriarxal tartiblar yemirilib, sinfiy jamiyat paydo bo'layotgan edi. Bu jamiyatning g'oyaviy ifodasi, mafkurasi sifatida yangi diniy ta'limotga ehtiyoj tug'ilgan. Bu ehtiyojning oqibati sifatida yangi din - islom vujudga kelgan.

Shu o'rinda islom dinini tashkil etgan payg'anbarimiz Muxammad ibn Abdullox (s.a.v) haqida so'z yuritsak. Muhammad (s.a.v.) (570-632) islom ta'limotiga ko'ra, yagona qonuni -islom dinini bandalari orasida yoyishga da'vat etgan.⁴¹ Muhammad (s.a.v.) 570- yilda Makka shahrida tug'ilgan. Otasi Abdulloh 25 yoshida vafot etgan paytida Muhammad (s.a.v.) ikki oylik chaqaloq edi. Muhammad 6 yoshda bo'lganida onasi Omina ham vafot etadi. Endi, uni bobosi Abd al-Mutallib o'z tarbiyasiga oladi. Abd al-Mutallib arablarning quraysh qabilasidan edi. Ikki yildan so'ng Abdal-Mutallib ham vafot etgach, Muhammad (s.a.v.) amakisi Abu Tolib qaramog'ida qoladi. Amakisi Abu Tolib tijoratchi edi. U jiyan Muhammad (s.a.v.)ni ham tijorat ishlariga o'rgatadi. Muhammad (s.a.v.) zehni o'tkir, mehnatsevar bo'lib o'sadi. o'smirlik chog'iaridanoq savdo karvonlarini kuzatib boruvchi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa uni sahro sharoitida ham yashay olishga o'rgatgan. Muhammad (s.a.v.) o'spirinlik chog'ida faqat tinchlik sharoitidagi hayotnigina ko'rib qolmay, balki urush harakatlarida ham qatnashgan. Masalan, 584-yilda quraysh qabilasi bilan boshqa qabila o'rtasida urush boshlanganida, u amakilariga kamon o'qini uzatib turgan.Tinchlik o'rnatilgach, cho'ponlik ham qilgan. Ana shunday faol hayot , sayohat va kattalar g'amxo'rligi Muhammad (s.a.v.)ning ham aqlan, ham axloqiy jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishini ta'minlagan. Muhammad (s.a.v.) ga 24 yoshida "sadoqatli", "amonatdor", "sofdil" degan laqab berilgan va bu laqab barcha tomonidan tan olingan. 25 yoshida Hadicha bilan turmush quradi. 40 yoshli Hadicha o'z davrining o'qimishli ayoli bo'lgan. U Muhammad (s.a.v.)ning halol, ishonchli odam bo'lganligi uchun unga turmushga chiqqan. Ular 6 nafar farzand ko'rganlar. Afsuski, farzandlaridan

⁴¹ Abdutavvob Yusuf Muhammad (s.a.v.) hayotidan o'n qissa. Arabchadan Jahongir Barnoyev tarjimasi. Movaraunnahr nashr., T., 2004. B.2.

faqat Fotimagina voliddan so'ng biroz yashagan. Qolganlari yosh vafot etgan. Fotima unib-ulg'aydi va otasining izidan borib, katta hurmatga sazovor bo'ldi. 610-yildan boshlab Muhammad(s.a.v.)ning hayotida keskin o'zgarish yuz beradi. Bu o'zgarish-ularning payg'ambarlik faoliyati boshlanishi bilan belgilangan. Payg'ambar - xudoning elchisi. Xudo payg'ambarni odamlar orasidan tanlaydi. Payg'ambarlik ilohiy vahiya suyanadi.⁴² Ayni paytda Alloh bilan to'g'ridan-to'lg'ri gaplashishga inson dosh berolmaydi. Shu sababli Alloh o'z so'zlarini farishta orqali o'z payg'ambariga ma'lum qiladi. Bunga vahiy deyiladi⁴³.

Muhammad (s.a.v.) ga dastlabki vahiy kela boshlaganida ular 40 yoshda edilar. Vahiy kela boshlagan birinchi kun Islom tarixida "Laylat ul-qadr" (Qadr kechasi) deb ataladi. Shu kundan, 40 yoshli Muhammad (s.a.v.) payg'ambarga Allohning rasuliga (elchisiga) aylangan. Bu faoliyat bilan 23 yil shug'ullangan. Shu yillar davomida Muhammad (s.a.v.)ga Allohning so'zi - Qur'oni karim suralari nozil bo'lib turgan. U makkaliklarni butga sig'inishdan qutqarish va yagona Alloh e'tiqodiga kiritish uchun 3 yil yashirin faoliyat olib borgan. Muhammad Rasululloh faqat butparastlikka qarshi kurash bilan cheklanib qolmagan. U ayni paytda o'z qabilasi qurayshlar ichidagi xurofotlarga ham barham berishga harakat qilgan. Xo'sh, bu xurofotlar nimalardan iborat edi? Islom diniga oid kitoblarda xurofot haqida juda ko'p ma'lumot berilgan. Islomgacha bo'lgan ko'p xudolik e'tiqodlarida ichki buzilishlar kuchaygan. Ijtimoiy hayotda esa tubanlik, ichkilikbozlik, qimor va buzuqlik avj olgan edi. Binobarin, insonlarning ruhlari ham, e'tiqodlari ham, xatti-harakatlari ham buzilgan edi. Odamlarda uyat tuyg'usi yo'qolgan edi. Arabistondagi katta savdo markazlari chetdan kelgan axloqiy tubanlik botqog'iga g'arq bo'lganlar bilan toshib ketgan edi. Ayollarga hayvondek muomala qilinar, ba'zan tug'ilgan qiz bolalarni tiriklayin ko'mib tashlash odati ham bor edi. Arablar qimorga shunchalik berilgan edilarki, ularning ayrimlari pullari tugagach, o'zlarining erkini ham qimorga tikib yuborar edi. Bunday axloqsizliklardan qutulishning najot yo'li kerak

⁴² Ma'sudxon Ismoilov Tarixiy atamalar lo'g'ati. Akadeniyanashr.T., 2013. B.318.

⁴³ Скирянская И М., Киямилов Х С. Ислам в история народов востока. Москва 1981 г. С.11.

edi. Muhammad (s.a.v.) o'zini ana shunday najot yo'liga bag'ishladi. Qadimgi arablarning islomgacha o'tgan davrlari johiliya deb atalgan. Buning ma'nosi bilimsizlik, johillik, jaholatdir. Bu kamsitish islom ma'jusiylig arablarga bilim, ma'rifat keltirgan degan qisman to'g'ri g'oyani asoslash uchun ko'proq ishlatilgan. Aslida arab xalqining islomdan oldingi davriga xos ma'naviy meros, chunonchi hozirgacha saqlanib qolgan adabiy merosi bu xalqning muayyan bilim, madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Xo'sh islom dinidagi Olloh ilohi nomi qayerdan kelib chiqdi. Yuqorida aytganimizdek, qadimgi arablar fetishizm diniga e'tiqod qilganlar. Bu dinni Ka'bada ular xudosiining sanamlari takialarga terib qo'yilganligidan keyin, Muhammad ularni bu yerdan chiqarib tashlaganligidan bilsa bo'ladi. Har bir arab qabilasining o'z xudosi haykalchalari bo'lib, bularning soni 360 ga yetgan. Natijada Ka'bada barcha arab qabilalari sig'ingan ma'jusiylig ziyoratgohiga islomdan bir necha yillar oldinroq aylangan edi. Bular orasida quraysh qabilasining al-Iloh deb nomlangan, keyinchalik Olloh nomiga asos bo'lgan sanami ham bo'lgan.

O'sha davrda haniflardan Sajjah, To'layh, Asvad, Musaylima kabilar ancha mashhur bo'lganlar. Muhammad (s.a.v) ham oldin hanif bo'lib, yangi din targ'ibotini haniflardan biri sifatida boshlagan⁴⁴. Haniflar VI asrda arab qabilalari orasida keng tarqalgan mushrikiylig, ya'ni ko'pxudolikka qarshi vahdoniylig, ya'ni yakka xudolig, targ'ib qila boshlaganlar. Bular orasida Musaylima, so'ng esa Muhammad mashhur bo'lib ketganlar. Haniflar, jumladan Muhammad (s.a.v.) ham yurtlarining mushrikiylig dinlarini, yarim orol shimolidagi yurtlarda tarqalgan yaxudiylik, xristianlik, Eronda keng yoyilgan zardushtiylig, moniylig dinlarini o'rganganlar. Muhammad (s.a.v.) yoshligida Hadicha begimning karvonini haydab, bu yurtlarga qayta-qayta borib, qo'shni xalqlarning hayoti, turmush tarzi, diniy e'tiqodlarini sinchkovlik bilan o'rgangan. Ulardagi yakkaxudolig g'oyalarini qabul qilib, vahdoniyatni 10 yil davomida zo'r g'ayrat, shijoat, o'tkir iroda va qat'iyat bilan targ'ib etgan. U V-VI asrlarda yashagan arab qabilalarining totemizm, fetishizm, animizm, sehrgarlik kabi diniy tasavvurlarining o'zaro

⁴⁴ Скирянская И М., Киямилов Х С. Ислам в история народов востока. М. 1981 г. С.11.

qorishib ketgan e'tiqodlarini, shirk (mushriqiylik)ni qoralagan. Quyoshga, Oyga topinishlarni, buning natijasida vujudga kelgan "ilmi nujum"ning behudaligini tushuntirgan. Haniflik ta'limotiga yahudiy va xristian dinlarining ta'siri avval boshdanoq kuchli bo'lgan. Bu dinlar shuning uchun kitobiy deb hisoblangan. Ularning payg'ambarlari yangi dinda ham e'zozlanib, keyinchalik Qur'onga kiritilib, unda qayta-qayta tilga olingan. Xulosa shuki, qadimgi arablar politeizmga itoat qiladigan, ibtidoiy dinlardan ko'pchiligining ta'sirida bo'lgan, hatto Quyosh, Oyga ham sig'inadigan ma'jusiyy bo'lganlar. Yarim orolda qancha qabila bo'lsa, uning shuncha xudosi, ma'budasi, tangrisi bo'lgan. Muhammad (s.a.v) shu mabudlarni rad etib yagona Ollohga siginish dini bo'lgan islomni targ'ib qildi va uni yoya oldi.

Shu tariqa islom dini paydo bo'ldi. Endi uni boshqa o'lkalarga yoyish lozim edi. Islomning boshqa o'lkalarga tarqalishi sekinlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Muhammadning 632 yildagi vafotidan so'ng uning o'rinbosar, sahoba, muxojir, asxobu ansorlari yangi dinni har xil usul, vositalarni ishga solib, targ'ib etganlar. Uni arab xalifaligi xalqlarining turmush va madaniyatining g'oyaviy asosiga aylantirganlar. 632-yildan 661-yilgacha bo'lgan qisqa vaqt ichida 4 nafar xalifa hukmronlik qilgan. Bular –Muhammad (s.a.v.)ning qaynatalari Abu Bakr va Umar, kuyovlari Usmon va Alilar edi. Ularning ichida Arab xalifaligi hududlarini kengaytirishga ulgurgan xalifa Umar edi. Uning davrida Suriya, Falastin, Misr, Shimoliy Afrika, Iroq istilo qilingan. Shu tariqa islom dini dunyo bo'ylab tarqala boshlagan edi. 4-xalifa - Ali davrida istilolar kuchayib, bu davlat kengayib, Yamandan Sino rim oroligacha, Qizil dengiz sohillaridan Sahroi kabirgacha davom etgan katta xududni o'z doirasiga olgan. So'ngra arab bosqinchilari Kavkazga, O'rta Osiyoga yurish qilib, so'nggi halifa Ali davri oxirlariga kelib, ya'ni 30 yil ichida Amudaryo sohillaridan Shimoliy Afrikagacha, Shimoliy Kavkazdan Yaman, Ummongacha cho'zilgan yangi imperiyaning barpo etganlar. Islom bu imperiyaning davlat dini, hukmron mafkurasiga aylantirilgan. Arab qo'shinlari badaviy va yollangan jangchilardan tashkil topgan va o'z

davrining harbiy san'at va texnikasi darajasidan ancha past bo'lgan. Biroq, bosib olingan mintaqalarning feodal tarqoqligi, o'zaro urushlardan holdan toyganligi istilochilarga jiddiy qarshilik ko'rsata olmasligiga sabab bo'lgan. Qadimiy imperiyalar - Vizantiya va Eron o'zaro urushlarda holdan toygan, kuch-qudrati so'nib, yemirila boshlagan. Hali arab bosqinchilari oyog'i yetmagan Shimoliy Hindiston, Markaziy Osiyo va Kavkazda ham yirik, kuchli davlatlar yo'q edi. Mayda knyazlik, beklik, xonliklar o'zaro urushlarda zaiflashgan va tarqoq bo'lgan. Shu sababli arab bosqinchilari VIII asr oxirigacha bu o'lkalarni nisbatan osonlik bilan egallab, islomni mustamlaka xalqlarning turmush tarziga aylantirib, ma'naviy madaniyatga zo'r berib singdirganlar. 661-750-yillar xalifalik tarixida umaviylar sulolasining hukmronlik davri deb ataladi. Bu davrdan boshlab arablar yurishining ikkinchi davri boshlanadi. Ular Shimoliy Afrikadan to Ispaniyagacha bo'lgan yerlarni fath etdilar. Islom dini IX—X asrlarda Tataristonda, X—XII asrlarda Boshqirdistonda tarqalgan. XVI asrdan boshlab turk sultonlari boshchiligidagi Usmoniylar xalifaligi tarixi boshlangan. Hozirgi arab davlatlarining barcha hududlari Usmoniylar imperiyasi qo'l ostida bo'lgan. 1517-yilda Usmoniylar Misrni bosib olganlar va o'zlarini butun musulmonlar olami rahbari davomchilari, deb e'lon qilganlar. Bu hol Usmoniylar imperiyasi qulaguncha 1918-yilgacha davom etgan.

Xo'sh bu hududlard islom dinining yoyilishiga qanday omillar sabab bo'ldiki, bu din bunchalik keng tarqalib, yuksak cho'qqiga erishdi. Buning sababi birinchidan, markazlashgan davlat vujudga kelganligi, ikkinchidan, ibtidoiy dinlardan demokratik, insonparvar, tinchlik, do'stlik, odillikka da'vat etadigan muhim omillarni olganligi, uchunchidan, halifalik tarkibiga kirgan yuzlab elatlarga yagona arab tili va o'rta asr arab madaniyatini yoyishga imkon tug'ilganligidir. Islomning Markaziy Osiyoga kiritilishi ham muayyan darajada ijobiy rol o'ynagan. Misol uchun, dastlab diniy amallarni bajarishda arab tili ustunligi o'rnatilgan; fan, adabiyot, falsafa va ma'naviyat, madaniyatning shakllanishida ham arab tilining ta'siri kuchaygan. Natijada islom tarqatilgan Markaziy Osiyoda ilm-ma'rifat, madaniyatning rivojlangan. Bu yerdagi diniy maktab, madrasa, dorilfununlar diniy

maqsadlarda bunyod etilgan bo'lsa-da, xat-savod, dunyoviy bilimlarga yo'l ochgan. Dunyoviy, real qadriyatlarga ham ega bo'lgan islom mahalliy xalq turmushi takomillashuviga, madaniyatdagi turli jihatlar rivojiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Chunonchi, me'morchilikda masjid, madrasa, dorilfunun, maqbara va hakoazolarni xalq ustalari qurgan, xalqning ijodiga bog'liq moddiy madaniyat boyliklar bo'lgan. Bularni qurishda ishtirok etgan binokorlar ish bilan ta'minlangan, pul ishlagan, oilasini boqqan, quruvchilik kasbini egallagan, o'z shaxsiy uylarini qurishda o'sha me'morchilik obidalarini bino qilishda orttirgan tajribadan foydalangan. Islom istilo etilgan xalqlar turmushiga o'sha davrlardayoq kiritgan va hozirgacha davom etayotgan namoz, xaj qilish, ro'za, xayitlarni bayram qilish, mavlud, zikr kabi marosimlar mavjud edi. Bularning har birining o'z ta'rifi, o'z tavsifi, o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgan. Bu haqda Tantoviyning "Islom diniga umumiy tasnif" kitobida mukammal berilgan. Bular bilan bir qatorda mahalliy elatlar orasida islomgacha tarqalgan navro'z, qizil gul, lola sayli, boychechak kabi bayramlar davom etgan. Xulosa shuki, islom arab istilochilari bosib olgan va bu dinni kiritgan joylarda nisbatan tez, oson qaror topib, mahalliy elatlar turmush tarzi va madaniyatida ijobiy rol o'ynagan va o'ynamoqda.

Islom dinining muqaddas kitodi-"Quron" haqida so'z yuritadigan bo'lsak, musulmonchilikda bu kitobning butun mazmuni Ollohning osmondan vahiy qilingan so'zi, deb tushuniladi. Muhammad (s.a.v.) davrida Qur'on kitob holiga keltirilmagan. Biroq Qur'on matni (suralari) Muhammad payg'ambarning sahobalari (safdoshlari) tomonidan yod olib borilgan va turli buyumlarga yozib ham qo'yilgan. Muhammad payg'ambar (s.a.v.) vafotidan so'ng xalifa Abu Bakr Siddiq Qur'on suralarini yoddan biladigan kishilar hayotligida suralarni to'plam holiga keltirishdek ishni amalga oshirgan. Shumaqsadda Abu Bakr 632 yilda Qur'on sahifalarini to'plab, dastxat qilishni sahoba (arabchada – hamroh, do'st degan ma'nolarni anglatadi)⁴⁵ Muhammad Zayd ibn Sobitga topshirgan. Abu Bakr to'platgan suralar to'plami "Suhuf" (arabchadan tarjimasi "Sahifalar") deb

⁴⁵ Ma'sudxon Ismoilov Tarixiy atamalar lo'g'ati. Akadeniyanashr.T., 2013. B.382.

atalgan⁴⁶. Lekin suhuf matni bilan Qur'on suralarini (arabchada izra – devorni terishda ishlatiladigan g'isht yoki toshning bir qatori degan ma'nolarni anglatadi)⁴⁷ mustaqil to'plovchilarning matnlari o'rtasida tafovutlar mavjud bo'lgan. Bu esa dinda katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Xalifa Usmon hukmronligi davrida Qur'onning yangi nusxasini yaratishga zarurat tug'ilgan. Chunki xalifa Usmon davrida Arab xalifaligi juda keng mintaqalarni o'ziga birlashtirar edi. Xalifalik kengaygan sari odamlar orasida sahobalarning targ'ibot ishlarini olib borishlari g'oyatda mushkillashgan. Natijada, Qur'on so'zlari (ya'ni oyatlari) turli joylarda turlicha o'qila boshlangan. Bu esa islom e'tiqodchilari orasida ixtilof keltirib chiqarmay qolmas edi. Oxir-oqibatda, bu ixtilof islom jamiyatini bo'lib yuborishi mumkin edi. Xalifa Usmon bu omilni ziyraklik bilan fahmlay oldi va tez fursat ichida Qur'onning mufassal, bir butun kitob holidagi nusxasini yaratishga amr etgan. Hukmdorning amri 651-yilda bajarilgan Qur'onning bu nusxasi "Mus'haf" ("Muqovalangan sahifalar")⁴⁸, ko'pincha esa "Usmon to'plami" deb ataladi. Mazkur to'plam kiyik terisiga bitilgan. Kelgusida Qur'on matni xususida tafovutlar chiqmasligi uchun Qur'onning "Usmon to'plami" dan boshqa barcha nusxalari yo'q qilingan⁴⁹.

"Usmon to'plami"ning asl nusxasi keyingi taqdiriga kelsak, u Madinada qoldirilgan, ko'chirilgan 4 nusxasi esa Makka, Kufa, Basra va Damashqqa yuborilgan. Qur'onning "Usmon to'plami" muqaddas kitob sifatida rasmiy tan olingan. Usmon Qur'oni katta jome' masjidlarida saqlanar edi. Usmon to'plamidan nusxa olish man etilgan edi. Hatto, bir shakl qo'yish va ichiga biror qog'ozdan yoki bargdan xatcho'p solish ham mumkin emasdi. Bu hol 50 yil davom etdi. Umaviy xalifa Abdul Malik ibn Marvon davrida ahvol o'zgardi. Endilikda Qur'onning "Usmon to'plami"dan nusxa ko'chirish zaruriyati tug'iladi. Chunki xalifalik tobora kengayib bormoqda edi⁵⁰. Bu vaqtda islom Shimoliy Afrika, Eron va O'rta Osiyoda tarqalgan edi. Islom bilan birga, bu

⁴⁶ Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi. darslik. T. 2006. B.88.

⁴⁷ Ma'sudxon Ismoilov Tarixiy atamalar lo'g'ati. Akadeniyanashr, T.,2013-yil. B.407.

⁴⁸ Ma'sudxon Ismoilov o'sha asar. B.293.

⁴⁹ Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari.Akademiy nashriyoti. T., 2007. B.133.

⁵⁰ Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi. darslik. T., 2006. B.109.

yerlarga, tabiiyki, arab tili ham kirib kela boshladi. Endilikda bu tildagi Qur'on oyatlari qiroatiga o'zgarishlar kirmay qolmas edi. Natijada, Qur'ondan nusxa ko'chirishda, uni o'qishda tafovutlar bo'lmasligi uchun unga arab yozuviga xos belgilar qo'yib chiqildi hamda har bir suraning nomi yozib chiqildi. Natijada, Qur'on 114 suradan iborat bo'ldi.⁵¹ Islom an'anasida Qur'onning asl nusxasi deb tan olingan "Usmon to'plami"ning to'rtala nusxasi ham mavjud. Ulardan biri Toshkentda saqlanmoqda. Bu nusxaning O'rta Osiyoga qanday olib kelinganligi haqida turli fikrlar mavjud. Ayrim manbalarda, Misr podshosi Zohir Baybars mo'g'ullardan eng birinchi bo'lib islomni qabul qilgan, keyinchalik do'stona aloqa o'rnatgan Samarqand hukmdori Barakotxonga sovg'a sifatida yuborgan, deyiladi. Boshqa manbalarda esa, Amir Temur Iroqni bosib olgach, Qur'on qo'lyozmasini Kufadan o'z poytaxti Samarqandga olib kelgan, deyiladi. Tarixchi olim Hamid Ziyoyev esa Misr podshohi Baybars «Usmon to'plami»ning bir nusxasini Oltin O'rda xoni Berka xonga sovg'a qilgan, Amir Temur esa To'xtamishxonni mag'lubiyatga uchratgach, o'sha Qur'onni Samarqandga olib kelgan, deb hisoblaydi. Xullas, mazkur nusxa Samarqanddagi Xoja Ahror masjidida bir necha yuz yil saqlangan. O'rta Osiyoni istilo qilgan chorizm amaldorlari 1869- yilda uni Petcrburgga yuborganlar. Va nihoyat, 1923- yilda bu kitob Toshkentga qaytarilgan. 1989-yil 14- mart kuni, ya'ni Toshkentda bo'lib o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari IV qurultoyida O'zbekiston hukumatining qarori bilan bu kitob musulmonlar ixtiyoriga qaytarib berildi. Hozirgi paytda u O'zbekiston Musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda.

"Usmon to'plami"ning qolgan 3 nusxasi Qohira, Makka va Madina shaharlarida saqlanayopti. Qur'on, yuqorida ta'kidlanganidek, 114 ta suraga, suralar esa ko'p yoki oz miqdordagi oyatlarga bo'lingan (Sura bandlari). Suralar -Makka suralariga (610-622-yillar, 86 sura) va Madina suralariga (622-632-yillar, 28 sura) ajratiladi. Ma'lum istisnolarni hisobga olmaganda, Qur'onda,

⁵¹ Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. Akademiya nashr., T., 2007. B.134..

qadimiy arab an'analariga ko'ra, avval uzun suralar, keyin esa qisqa suralar keladi⁵².

Xosh yuqorida ko'rganimiz buddizm, xristianlik dinlarnida har xil oqimlar bo'lganidek islom dinida ham oqimlar mavjud. Bugungi kunda islomda ikki oqim, to'rt mazhab va ko'pgina sektalar mavjud. Jahon dinlari, jumladan islom evolyusiyasining muayyan bosqichlarida har xil yo'nalish, oqim, sekta va mazhablarga bo'lingan. Buning o'ziga yarasha sabablari bor albatta, birinchidan, bularda bir-biriga zid g'oya, ta'limot, dasturlar ko'p bo'lgan; ikkinchidan, bu dinlar tarqalgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy kurash kuchaygan; uchunchidan, bu dinlarga ishonadigan har xil xalqlarning moddiy, siyosiy manfaatlari, madaniy rivojlanish darajalari har xil bo'lgan. Islomda VII asrning ikkinchi yarmidayoq eng avval xorijiyilar yo'nalishi shakllangan. Undan so'ng islom 2 yirik oqim - sunniylik va shialikka ajralgan. Musulmonlar orasidagi ehtiloflar diniy ta'limot masalalarida bunday ajralishga sabab bo'lgan. Shu bilan birga islom shakllanganda urush-janjallar uzluksiz sodir bo'lib turgan. Bular shu dinning birligi, yaxlitligiga putir yetkazib, uning bo'linishlariga sabab bo'lgan.

Sunniylik islomda sobit qadam, izchil, barqaror hisoblangan oqimdir⁵³. Musulmonlarning 92,5 foizi shu oqim tarafdoridir. Sunna arab tilida odat, an'ana, amaliy harakat degan so'zdan olingan.⁵⁴ Sunna deb Muhammad hadislari to'plamini aytadilar. Sunnat esa farzdan farqli holda bajarilishi ixtiyoriy bo'lgan dastur, amal, ko'rsatmadir.

Shialik guruh, partiya, tarafdor degan ma'noli arabcha "Shia" degan so'zdan olingan.⁵⁵ U VII asrning ikkinch yarmida maxsus siyosiy guruh sifatida yuzaga kelgan. U halifa Ali tarafdorlarini o'z doirasiga olgan. U g'oyat ko'p sektalarga bo'linib ketgan. Bular orasida ismoiliylar eng yirigi bo'lib, hozir taxminan 35 mln.ga yaqin a'zoga ega. Ularga og'ahonlar deb atalgan diniy arboblari yetakchilik qiladi. Safaviylar sulolasining birinchi shohi Ismoil XVI asrning boshlarida

⁵² Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi. darslik. T., 2006. B.110.

⁵³ Shayx Ali Tantoviy. Islomdiniga umumiy tasnif. Toshkent islom univesiteti. T., 2013. B.42.

⁵⁴ Ma'sudxon Ismoilov Tarixiy atamalar lo'g'ati. Akadeniyanashr, T., 2013. B.407.

⁵⁵ Ma'sudxon Ismoilov Tarixiy atamalar lo'g'ati. Akadeniyanashr, T., 2013. B.407.

shialikni Eronning rasmiy dini deb e'lon qilgan. Hozir ham u Eronda hukmron e'tiqod shakli hisoblanadi. Iroq, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Ozarbayjon, Tojikiston, Livan va boshqa davlatlarda ham keng tarzda yoyilgan.⁵⁶

Shialar Sunnani tan olmaydilar, ularning "Axborotlar"- xabarlar nomli o'z muqaddas yozuvi bor. Ular musulmonlarning tanho hokimi Alidir, hukmronlik qilish huquqiga faqat uning avlodlari haqlidirlar deb da'vo qilganlar. Shuning uchun ularda Aliga sig'inish, uni haddan ziyoda ulug'lash, sunniylarda esa Muhammadni e'zozlash doim raqobat ob'yekti bo'lib kelgan.

Shialar e'tiqodida ular uchun eng asosiy masala "g'oyib bo'lgan", "yashiringan" 12 imomga sig'inish bilan bog'liq g'oyadir unga ko'ra IX asr oxirida yashiringan imom Mahdi bu dunyoga bir kun qaytib kelib, tenglik, ozodlik, adolat, faravonlik, tinchlik, baxt-saodat o'rnatishiga ishonishdir.

Aslida bunday bo'lishi sira mumkin emas. Bunday diniy targ'ibotdan maqsad oddiy dindorlarda hayotga beparvolikni tug'dirish, ijtimoiy tengsizlik va uning og'ir oqibatlariga chidash, xayoliy "xaloskor"ning qaytib kelishiga, uning rohat-farog'at baxsh etishiga umid bog'latib, kurashdan chalg'itishdan iboratdir.

Shialar shahidlarga, xususan Husayn ruhiga sig'inadilar. Bunday sig'inish "shaxsey-vaxsey" degan mashaqqatli, murakkab odatda ifodalanadi. Bu odad shundan iboratki, shu kuni ular o'zlarini ayovsiz qiynoqqa soladilar, Husayn ruhiga nolalar qiladilar, motam tutadilar⁵⁷.

Bundan tashqari islomda sufiylik oqimi ham bor. Bu yirik oqim tasavvuf deb ham ataladi. U diniy-mistik falsafiy oqim bo'lib, ta'limotining asosiy masalasi islomga, Ollohga munosabatdir. U zohidlik va mistik, ya'ni mo'jizalarga ishonishga asoslangan. Sufiylik xilma-xil ta'limot bo'lib, u Markaziy Osiyoda naqshbandiylik, yassaviylik, qubraviylik, Kavkazda muridlik, Tataristonda voisovchilik va hakoza turlarda tarqalgan.

⁵⁶ Jo'royev U.T. Dunyo dinlari tarixi. darslik. T., 2006. B.111.

⁵⁷ O'sha kitob. B.111.

Islomdagi sektalarni undagi ilohiyotga, huquqqa xos bo'lgan hanafiya, shofe'iya, molikiya, hanbaliya kabi mazhablar bilan aralashtirib yuborish mumkin emas.

Islom sektalari musulmonlarning diniy uyushmalaridir. Ular juda ko'p bo'lib, musulmon mamlakatlarining qariyb barchasida mavjuddir. Chunonchi, sunniylardan ajralib chiqqan ahmadiy, alaviy, ibodiy, idrisiy, qodiriy, muridiy, rashidiy, tijoniy, hamoliy, jadiliy va boshqalardir. Shialardan ajralib chiqqanlari esa xorijiy, ismoiliy, zaydiy, nizoriy, druzlar, bahoii va hakozolardir.

Islomda oqim, mazhab, sektalarning ko'pligi boshqa jahon dinlari kabi u ham monolit, ya'ni yaxlit, yagona ta'limot emasligidan, undan turli sinf, ijtimoiy tabaqa, diniy partiyalar manfaatdorligidan dalolat beradi.

1.2. Markaziy Osiyo xalqlari tarixida zardushtiylik va boshqa jahon dinlarining o'rne

Bugungi mavzuyimizning asosi bo'lmish zardushtiylik diniga to'xtalib o'tamiz. Zardushtiylik dini eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda yuzaga kelgan dindir. Bu din *Zaratushtra* (yoki *Zardust*, yoki *Zaroastr*) nomi bilan bog'liq. Xo'sh bu dinning paydo bo'lishiga qnday ehtiyojlar mavjud edi yoki nima sababdan bu din paydo bo'ldi. Zardushtiylikning yuzaga kelishi sabablari quyidagilardan iborat:

- jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, sinflar va davlatning yuzaga kelishi natijasida eski munosabatlarni aks ettiruvchi ibtidoiy din shakllarning yangi davr talablariga mos kelmay qolishi;

- tabiat kuchlari, mavjudotlar va ruhlarni muqaddaslashtiruvchi, vazifalari noaniq g'ayritabiiy kuchlarni ifodalaydigan urug'-qabilaviy din, o'z qiyofasiga ega, ishlab chiqarish sohalariga homiylik qiladigan, kuch va imkoniyatlariga ko'ra guruhlashgan qudratli xudolar bilan almashtirish zarurati;

- ma'naviy tajribani umumlashtirish va ularga ilohiy tus berish bilan jamiyat va davlatni yanada mustahkamlash ehtiyoji. Zardushtiylik paydo bo'lgan davr birinchi sinfiy jamiyat, ya'ni quldorlik davri endi paydo bo'layotgan davr edi. U urug'-qabilachilik tuzumi emirilib aholi qullar va quldorlarga, zolim va mazlumlarga bo'linayotgan davr bo'lgan⁵⁸.

Zardush kim edi u haqiqatdan ham tarixiy shaxsmi yoki afsonaviy shaxsmi? Tadqiqotchilar o'rtasida Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'lmaganligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar uni tarixiy shaxs deb bilishsa, yana boshqalar uni afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u eramizdan avvalgi, taxminan, 570 yillarda tug'ilgan ilohiyotchi, faylasuf, shoirdir. Zardusht O'rta Osiyodagi ko'pxudolikka asoslangan qadimiy diniy tasavvur va e'tiqodlarni isloh qilib yangi dinga asos soldi. U ko'p xudolik tasavvuriga, tabiat hodisalariga sig'iniishga qarshi chiqib, yakka xudolikni targ'ib qildi. U ezgulik xudosi Axuramazda bilan odamlar o'rtasidagi vakil sifatida maydoniga chiqdi. Zaratushtra eroncha so'z bo'lib "ushtra" – tuya, "zarat" - sariq, ya'ni keksa tuyachi – tuyachilar

⁵⁸ Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. Akademiya nashr., T., 2007. B.62.

avlodi degan ma'nolarni bildiradi⁵⁹. Zardushtning boshqalardan farqi shundaki, u o'ta iste'dodli shoir, ilohiyot bilimdoni, faylasuf olim edi. Yagona xudoga ishonishga jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tara oladi, deb hisoblar edi u. Shu yo'lda Zardusht Navro'z kunlaridan birida kohinlar boshchiligida muqaddas ichimlik bo'lgan "jamo" tayyorlashga kirishadi⁶⁰.

Zardushtning tug'ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joyi to'g'risida ikki fikr mavjud: birinchisi "G'arb teoriyasi" bo'lib, unga ko'ra Media (hozirgi Eron hududida) Zardushtning vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi. Bu fikr tarafdorlarining dalili - birinchidan zardushtiylikning Qadimiy Eron hududlarida keng tarqalganligi bo'lsa, ikkinchidan zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalmish Avestoning bizgacha etib kelgan nusxasi qadimiy eron-pahlaviy tilida yozilganligidir⁶¹.

Yana bir boshqa fikr "Sharq teoriya"si bo'lib, bunga ko'ra Zardusht vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi Xorazm hisoblanadi va ko'pchilik manbashunoslar shu teoriya tarafdoridirlar. Xorazm birinchi bo'lib Zardushtiylik muqaddas olovi "Atarxurra" yoqilgan va Axuramazda Zardusht bilan bog'langan joy hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi hisoblangan "Avesto" ning "Yosin" deb atalgan qismida: "birinchi bor muqaddas olov "Atarxurra" "Eran-vej" (ba'zi manbalarda "Ayrian vedja")da yoqildi" deyiladi. "Eran-vej"ning geografik va iqlimiy tavsifi Xorazmnikiga to'g'ri keladi⁶².

Yuqorida aytganimizdek zardushtiylikning muqaddas kitobi- "Avesto" hisoblanadi. Qadimda bu kitobni juda ko'p qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lgan. Bugungi kunda bizgacha etib kelgan "Avesto" nusxalari ikki variantdadir. Birinchi varianti yolg'iz "Avesto"ni o'z ichiga oladi. Ikkinchi varianti pahlaviy tilidagi sharhli tarjimani o'z ichiga olib, u kitoblarga, bob va paparraflarga ajratilgan. Shu ikkinchi varianti bo'yicha "Aevsto" quyidagi kitob (qism)lardan iborat:

1.Vendidod. U 22 bobdan iborat bo'lib, asosan Axura Mazda bilan

⁵⁹ Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. Akademiya nashr. T., 2007. B.64.

⁶⁰ Jo'rayev U.T. Dunyo dinlari tarixi. Toshkent. 2006-yil. B.36.

⁶¹ Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. Akademiya nashr., T., 2007-yil. B.62.

⁶² Narbekov A.V. o'sha asar. B.63.

Zaratushtraning savol-javobi formasida yozilgan. Boblar turli yomon ruhlarni, devlarni engish voqealarini, gunohlardan pok bo'lish qoidalarini va qisman mifologik elementlarni o'z ichiga oladi. Professorimiz Mirsodiq Isoqov ushbu qismni tarjima qilib, o'zbek tilida nashr ettirganlar.

2. Visparad. U 24 bobdan iborat bo'lib, ibodat qo'shiqlarini o'z ichiga oladi.

3. Yasna. U 72 bobdan iborat bo'lib, qurbonlik chiqarish marosimida aytiladigan qo'shiqlarni, xudolar madhiyasini va boshqa diniy marosimlarga xos rasm-rusumlarni o'z ichiga oladi. Uning 17 bobi gotlar - gimnlar deb atalgan. Bu boblar "Avesto"ning eng qadimgi qismlaridir.

4. Yasht. U zardushtiylik xudolari va ma'budalari madhiga aytilgan 22 qo'shiqni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, Yashtda mifologik elementlar "Avesto"ning boshqa qismlaridagiga nisbatan xiyla ko'proqdir⁶³.

5. Kichik Avesto. (Xo'rda Avesto, Xvartak-apastak.) U Quyosh, Oy, Ardvisura. Varxran va boshqa xudo hamda ma'bular sharafiga aytilgan kichik ibodat tekstlarini o'z ichiga oladi.

Avesto tarixiy kitob hamdir unda Markaziy Osiyodagi tarixiy joy nomlari berilganligini ko'ramiz. Misol uchun, Avestoda Axuramazda tomonidan berilgan "Barokot va najot" sohibi bo'lgan bir qator mamlakatlar qatorida ularning eng birinchisi deb, "dunyoda hech narsa uning chiroyiga teng kela olmas Eran-vej", deyiladi. Bugungi kundagi taxminlarga ko'ra bu hudud Xorazm vohasiga to'g'ri keladi. Keyin esa, "odamlar va chorva podalariga mo'l" Sogd (Sug'd), shuningdek, "Qudratli va muqaddas" Mouru (Marv), "Baland ko'tarilgan bayroqlar mamlakati" Batxi (Baktriya) zikr etiladi. Shuningdek, Avestoda Zardusht tug'ilgan va o'z faoliyatini boshlagan yurt haqida ham ma'lumot beriladi. Aytilishicha, "SHunday mamlakatni ko'p sonli lashkarlarni botir sarkardalar boshqaradilar, baland tog'lari bor, yaylov va suvlari bilan go'zal, chorvachilik uchun barcha narsa muhayyo, chuqur, suvga mo'l ko'llari bor, keng qirg'oqli va kema yurar daryolari o'z to'lqilarini Iskata (Skifiya), Pauruta, Mouru (Marv), Xareva (Ariya) Bava (Sug'd hududida), Xivayrizima (Xorazm) mamlakatlari tomon elituvchi daryolari

⁶³ Jo'rayev U.T. Dunyo dinlari tarixi. T., 2006. B.36.

bor”⁶⁴.

Yuqoridagi keltirib o'tilgan jumla ham zardushtiylikni Xorazmdan tarqanligini isbotlaydi. “Keng qirg'oqli, kema yurar daryolar” bu Amu va Sirdaryo bo'lib, Avesto tasvirlagan mazkur shaharlar O'rta Osiyo shaharlarining bu ikki daryo qirg'oqlarida joylashganlaridir.

Avestoning “yasht” qismida bayon etilishicha Zardushtning vatandoshlari unga ishonmaydilar, va uning ta'limotini qabul qilmaydilar. Zardusht vatanni tark etib, qo'shni davlatga ketadi, u erning malikasi Xutoasa va Shoh Vishtaspaning xayrixohligiga erishadi, ular Zardusht ta'limotini qabul qiladilar. Natijada qo'shni davlat bilan urush boshlanib, Vishtaspa g'alaba qozonadi. SHundan so'ng bu ta'limot xalqlar o'rtasida keng tarqala boshlagan.

Shoh Vishtaspa farmoniga binoan Zardushtning 1200 bobdan iborat pandnomasi Avestoning qadimiy qismi “Gotni” yozib shohning otashkadasiga topshirgan.

Xo'sh, Xorazm vohasida zardushtiylik dini paydo bo'lgan va shu yerdan tarqalgan deb aytib o'tmoqdamiz. Buning ilmiy asoslari mavjudmi? Bugungi kunda amalga oshirilgan qazishma ishlarida zardushtiylikka oid qandaydir buyumlar yoki biror muhim narsalar topilganmi degan savollarga javob bersak. Zardushtiylikni Xorazmda vujudga kelish tarixidan Qadimgi Xorazm Ma'mun Akademiyasi Xorazm vohasi hududida keng miqyosida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan ashyolar ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, diniy tasavvurlarini ravshan tasvirlaydi⁶⁵. Insoniyat olovni ixtiro qilgandan keyin kundalik faoliyatida unga sig'inishni olib borgan. Arxeologik ashyolarning tasdiqlashicha, Xorazm vohasi xududida xo'jalik yuritgan qabilalarda olovga sig'inish mil.avv VI ming yilliklarda sodir bo'lgan. Amudaryoning o'ng sohili xududida joylashgan Yonbosh-4 manzili markazida oddiy usulda to'g'riburchakli otashgoh qurilgan. Bu otashgoh erkin urug' jamoasi a'zolari uchun umumiy bo'lib, diniy rasm-udumlarini amalga oshirgan. Mil. avv III-II ming yilliklarga kelib

⁶⁴ Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. Akademiya nashr. T., 2007. B.63.

⁶⁵ “Avesto” va O'rta Osiyo xalqlari madaniyatida. Mavzusidagi ilmiy amaliy anjuman materiallari. Xiva-Nukus. 2001. Sobirov Q. B.79.

Qadimgi Xorazm jamiyatining ijtimoiy iqtisodiy va madaniy rivojlanishida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu tarixiy davrda otashgohlar manzil markazida joylashishi davom etdi. Otashgohlarning joylashishida, tuzilishi va hajmida hech qanday o'zgarish sezilmaydi. Mil. avv III-II ming yilliklarda bobodehqonlarimiz uy-joy qurilishida loy ishlatmaganligi sababli, otashnohlar qurilishida ham bu ashyo qo'llanilmagan. Qo'shni xududlarda, asosan Janubiy Turkmanistonda neolit davri manzillari uy-xonalari devorida maxsus to'g'riburchakli o'rindiqlar qilinib olovdan qo'yilgan, bu esa otashgoh vazifasini bajargan. Er. avv IV ming yillikka kelib, aylana va to'g'riburchakli otashgohlar Janubiy Turkmaniston (Geoksyur), 80 Janubiy Baktriya xududlarida qurilgan (Dashli-3). Mil. avv VI ming yillikdan I ming yillik boshlarigacha bo'lgan tarixiy davrda qadimgi Xorazm jamiyatida mavjud bo'lgan otashgohlar sodda va oddiy shaklda qurilgan bo'lib, ajdodlarimizning madaniy-ma'rifiy sohadagi bilimlar darajasiga bog'liq bo'lgan. Mil, avv VII-VI asrlardan boshlab Xorazm vohasida hajmi katta shaharlarda maxsus paxsa yoki xom g'ishtdan otashgohlar qurilishi boshlangan. Qishloq joylarida sodda holda otashgohlar qurilishi ham davom etgan. Ko'zaliqirni to'rt qatorli devor o'rab olgan bo'lib, devor o'rtasida yo'laklar mavjud. Shu yo'laklarda uy xonalari mavjud bo'lib, ibodatxona shu yo'lakda joylashgan. Qishloq jamoalarida ilk otashgoh Ding'olja manzilida o'rganilgan. Otashgohlar uy xonalari markazida, keng yo'lak o'rtasida va qishloq mudofaa devoridan tashqarida oddiy usulda qurilgan. Otashgoh dumaloq shaklda tashqi aylanasi -4 m, ichki qismi aylanasi 1,6 m, chuqurligi 0,47 m. Markazda maxsus chuqurcha bo'lib, doimo olov yonib turgan. Ding'olja manziliga yaqin bo'lgan otashgoh qishloq aholisini umumiy ochiq holatdagi sajdagohi yoki qurbonlik qiluvchi joyi bo'lgan. Ding'olja qishlog'idagi uy xonalaridan inson suyaklari solingan alebastrdan yasalgan qutichalar topilgan, bu esa o'z navbatida zoroastrizmning 4 oqidasidan 2 tasi Mil. avv VII-VI asrlarda Xorazm vohasida mavjudligini isbotlaydi. Xorazm jamiyatida zoroastrizm bilan bog'liq bo'lgan udumlar endi shakllangan edi. Darvoqi, shu narsani nazardan qoldirmaslik kerakki, mil avv VII-VI asrlarda hajmi katta, bir necha zinapoyali, balandligi 8-10 m, uzunligi 70-100 m ibodatxonalar qurilishi

jamiyat tarixida o'z mazmunini namoyon qilmagan. Dumaloq, hajmi kichik, oddiy holdagi otashgohlarning qurilishi shakli tarixiy davrda mavjud bo'lgan siyosiy birlashma "Katta Xorazm" davlati faoliyati bilan bog'liq bo'lsa kerak, deb aytib o'tadi Sobirov o'zining materiallarda. "Katta Xorazm" davlatining Ahmoniyalar xujumiga qarshi chegara mudofaasini ta'minlashga katta e'tibor berishi diniy ishlarni davlat siyosati darajasiga ko'tarish imkoniyatlari chegaralangan bo'lishi shubhasiz. Diniy ishlar uchun maxsus ibodatxonalar qurilmagan. Qadimgi Xorazm vohasida diniy ishlar sohasida tub o'zgarishlar mil. avv IV asrdan boshlangan. Bu tarixiy davrda ibodatxonalar paxsa va xom g'ishtdan tiklanib, bir necha zinapoyadan iborat bo'lib, uning balandligi 8-12 m, shaharning markazida, bir burchagida yoki markaziy kucha oxirgi qismida joylashgan. Xulosa shuki, Xorazm vohasida xo'jalik faoliyatini olib borgan bobo dehqonlarimizning dastlabki sig'inadigan muqaddas joy otashkada bo'lib, oddiy ravishda qurilgan. Mil. avv VII-V asrlarga kelib paxsa va g'ishtdan iborat bo'lgan ibodatxonalar qurilib, qabilalarning sajdagohi bo'lgan.

Shunday qilib, 7 asrda Sosoniylar davlati parchalanib, arab bosqinchilari, Eron va O'rta Osiyoni bosib olgach, Zardushtiylar ham zarbalarga uchrab, unga ishonuvchilar quvg'in va ta'qib ostiga olindi. Uning muqaddaskitobi Avestoning aksariyat beshdan uch qismi yo'qolgan va unitilgan. U qadimiy ajdodlarimizni dunyoqarash, huquqiy, axloqiy, tamoyil qoidalarini o'z doirasiga olgan. Unda tabiat falsafasi, kosmogoniya, tarix, etika, medisinaga doir materiallar, bilimlar yozilgan. Yana unda shoh, oliy tabaqa, quldor, qul, dindorlar va diniy urf-odatlar katta o'rin olgan. Hokim va zolimlar ulug'langan, ruhoniylar muqaddas odamlarni hamma hurmat qilishi kerak deb da'vo qilingan.

Buddaviylik, xristianlik ayniqsa islomda zardushtiylar ta'siri, asorati kuchli. Bu din keng yoyilganligi va uzoq vaqt yashaganligi uchun u ajdodlarimiz ongi turmushiga katta ta'sir o'tkazgan. U vaqt, sharoit va o'ringa qarab o'zgargan zamonaviylashgan; ijobiy, dunyoviy jihatlari boshqa dinlarga bevosita va bilvosita singan. Masalan, mehnatga dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilikni rivojlantirishga da'vatlar bajonidil qabul qilingan. 4 element: suv, tuproq, havo,

olovni ezozlash, avaylash, asrash haqidagi nasihatlar hozir ayniqsa dolzarbdir. Dinga, jumladan islomga amalda e'tiqod qiluvchilar esa zardushtiylikdagi halollik, poklik, binoanlilik, odillik, mehnatsevarlik, elim deb, yurtim deb yonib, kuyib-pishib yashashlik haqidagi da'vatlariga hamisha amal qilishlari lozim. Har bir komil inson bu dindagi yovuzlik timsoli Ahriman keltiradigan xaromxo'rlik, xiyonatkorlik, nopoklik, aldamchilik, razillik, bezorilik, o'qishda, ishda yalqovlik, shaxsiy hayotda bevafolik, laqmalik, isrofgarchilik va hokazolarga qarshi o't ochishlari lozim.

Xulosa shuki, zardushtiylikning o'zidan keyingi barcha dinlarga salbiy ta'siridan ko'ra ijobiy ta'siri ustun bo'lgan. Deyarli barcha dinlarga xos xususiyat bo'lgan insonlarni etuklikka, ma'naviyati boy, axloq-odobli bo'lib tarbiyalashga intilish zardushtiylik dinining ham asosini tashkil qiladi. Bu ustunlik musulmonlar hayoti va faoliyatida ayniqsa e'tiborga loyiqdir.

II BOB. ZARDUSHTIYLIK VA JAHON DINLARI BOSH G'UYALARINING QIYOSIY TAHLILI: IJTIMOIIY MUNOSABATLAR, MA'NAVIY AXLOQIY TAMOIYILLAR MISOLIDA

2.1. Zardushtiylik va buddaviylik dinlarining qiyosiy tahlili.

Qadimgi dinlar bugungi jahon dinlarning ajdodlari hisoblanadi. Bugungi kunimizdagi jahon dinlari qadimgi dinlardan qaysidir tomonlarini olgan holda paydo bo'lgan. Shunga binoan nafaqat O'rta Osiyoda balki, butun dunyoda tarqalgan yahudiylilik, xristianlik ayniqsa islomda zardushtiylikning ta'siri, asorati kuchli deb bemalol ayta olamiz. Bu din keng yoyilganligi va uzoq vaqt yashaganligi uchun u ajdodlarimiz ongi turmushiga katta ta'sir o'tkazgan. U vaqt, sharoit va o'ringa qarab o'zgargan zamonaviylashgan; ijobiy, dunyoviy jihatlari boshqa dinlarga bevosita va bilvosita singan. Bu fikrimizni isbotlash uchun quyida zardushtiylik bilan buddaviylik, xristianlik va islom dinlarini, avvalo farqli so'ng, o'xshash tomonlarini qiyoslaymiz. Bunda dastlab zardushtiylik va buddaviylik dinlarini o'zaro solishtirsak.

Avvalambor zardushtiylik ta'limoti yakka xudolikka asoslangan birinchi diniy ta'limotdir. Aynan zardushtiylik yakka xudolikni targ'ib qiluvchi dastlabki dindir. Uning ta'limotida Ahuramazda yer yuzidagi barcha jonli va jonsiz mavjudotlarning, osmon jismlarining yaratuvchisi. Lekin talqinda boshqa xudolar ham mavjud. Lekin Ahuramazda ushbu xudolarni o'zi yaratganini aytib, o'zini oliy iloh darajasiga ko'taradi. (Mirsodiq Is'hoqov fikri)

Budda "yaratuvchi oliy kuch"ning borligiga ya'ni xudoning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan. Uning fikricha, eng muhimi insonning shaxsiy kamoloti va ezgu turmush tarzidir. Budda ta'limotining asosida "hayot - bu azob-uqubat" va "najot yo'li mavjud" degan g'oyalar yotadi. Buddizm ta'limotiga ko'ra, inson o'ziga xos mavjudot bo'lib, tug'iladi, o'zini-o'zi halok qiladi. Bu g'oyalar Buddaning ilk da'vatida ta'birlangan to'rt haqiqatda o'z ifodasini topgan.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, olam ikki ibtido-Ezgulik va Yovuzlik asosiga qurilgan⁶⁶. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan bu ikki kuch doimo ayovsiz kurashadi. Ayni paytda esa, ular doimo birgalikda mavjud hamdir. Olamdagi qarama- qarshiliklar yorug'lik va zulmat, hayot va o'lim, ezgulik va yovuzlik, adolat va qonunsizliklar o'rtasidagi o'zaro kurashlarda namoyon bo'ladi. Axuramazda hayot, ezgulik, yorug'lik, adolatning, dunyodagi barcha yaxshi narsalarning yaratuvchisi va himoyachisidir. Yovuzlik, zulmat va adolatsizlik esa shayton Axriman timsolidir. Axuramazda o'zi Ahrimanna yaratadi. Axuramazda Ezgulikni vujudga keltiradi. Axriman esa unga qarshi kurashib, odamlarni yomon ishlarga boshlayveradi. Yovuzlik ruhi Axriman o'lim, qahraton qish, zararli hayvonlar va hasharotlar homiysidir. Zardushtiylik ta'limoti kelajakka ishonch bilan qarashni targ'ib etadi. Ezgulik baribir - bir kunmas-bir kun yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi.

Budda ta'limotining asosida esa "hayot - bu azob-uqubat"lardan iborat. Buddizm ta'limotiga ko'ra, inson o'ziga xos mavjudot bo'lib, tug'iladi, o'zini-o'zi xalok qiladi yoki qutqaradi. Bu g'oyalar yuqorida aytganimizdek, Buddaning ilk da'vatida ta'birlangan to'rt haqiqatda o'z ifodasini topgan.

Birinchi haqiqat – "azob-uqubat mavjuddir". Har bir tirik jon uni boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday dunyoviy hayot-qiynoq, zob-uqubatdir, deyiladi buddaviylikda.

Tug'ilish - qiynoq, kasallik - azob, o'lim - kulfat, qiyinchilikka duch kelish - mashaqqat, ayriliq- ezilish, orzu-xavasga yetolmaslik - uqubat kabi fikrlar bilan Budda bu dunyo qiynoqlar uchun berilgan dunyodir deb aytib o'tadi. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog'liqdir. Xech bir narsa ma'lum sababsiz yaralmaydi. Lekin har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun buddizm dunyoni shu holicha qabul qilishga chaqiradi. Buddizm ta'limotiga ko'ra, har qanday narsa yoki hodisa, u xoh moddiy, xoh ma'naviy bo'lsin, Dharma(element)lardan tashkil topgan. Ular o'z xususiyatiga ko'ra xarakatsiz bo'lib, dharmalarni kuzatuvchi kuch insonning xayol va

⁶⁶ Jo'rayev U.T. Dunyo dinlari tarixi. T., 2006. B.40.

so'zlaridir. Ob'yektiv xaqiqat bu doimiy ravishda uzgarib turuvchi dxarmalar oqimidir. Xarakatdagi dxarmalar o'z mavjudligining besh shakli - tana, sezgi, his-tuyg'u, harakat, anglashni yaratadi. Mazkur besh shakl insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi, borliq bilan aloqada bo'ladi, yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Besh elementning o'zaro mavjudligi insonning o'limi bilan barham topadi. Insonni tashkil qiluvchi besh shakl o'z navbatida qayta tiriladi. Yangi tananing xususiyatlari asos bo'luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumroxlik, xohish, istak va me'yor. Bu jarayon "hayot g'ildiragi"ni tashkil qiladi. "Xayot g'ildiragi"da doimiy ravishda aylanib, inson abadiy qiynoqqa duchor bo'ladi.⁶⁷ Ikkinchi haqiqat – "qiynoqlarning sabablari mavjuddir". Inson moddiy narsalar yoki ma'naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi hamda doimo ularga ega bo'lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib boradi. Demak, qayta tug'ilish, qaytadan qiynoqlarga duchor bo'lish davom etadi. Aksariyat buddistlar fikricha, Buddadan keyin hech kim nirvana⁶⁸ holatiga erisha olmagan. Uchinchi xaqiqat – "qiynoqlarni tugatish mumkin". Yaxshi yoki yomon niyatlardan, intilishlardan butunlay uzilish nirvana xolatiga olib boradi. Bu xolatda inson qayta tug'ilishdan tuxtaydi. Aynan budda dinining boshqa dinlardan farqi ham shunda ya'ni ruhning abadiyligiga ishonmaydilar. Boshqa dinlarda esa ruh abadiydir, u jondan jonga o'tib yuraveradi. Buddistlar fikricha, nirvana holati «hayot g'ildiragidan» tashqariga chiqish, "men" degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuyg'ularini to'la tugatishdir⁶⁹.

Turtinchi xaqiqat – "qiynoklardan qutulish yo'li mavjuddir". Bu yo'l mazmunini najotning quyidagi 8 oliyjanob yo'li tashkil etadi:

a) to'g'ri maslak, to'g'ri nuqtayi nazar. Bu-donolik bo'lib, odamlarga hayotning 4 oliy haqiqatini tushunib olishga yordam beradi;

b) to'g'ri niyat. Bu -barcha tirik mavjudotga do'stona munosabatda bo'lishni, azob-uqubat tortayotganlarga hamdard bo'lishni, boshqalarning muvaffaqiyatiga

⁶⁷Ларий Горяев . " Буддизм история и традиция". Санкт-Петербург. 2007 г. С.32.

⁶⁸ Ma'sudxon Ismoilov Tarixiy atamalar lo'g'ati. Akadeniyanashr.T., 2013. B.297. (bu so'zning ma'nosi Sanskrit tilida "so'lish". Inson intilishining oliy holati. Nirvana materiya kishanidan, tug'ilish va o'lishga hech qanday aloqasi bo'lmagan, tashvishlardan ozod joyning mukammal holatidir)

⁶⁹ Jo'rayev U.T. Dunyo dinlari tarixi. T. 2006. B.82.

beg'araz munosabatda bo'lishni, shuningdek, har qanday sharoitda ham ruhan vazmin bo'lishni anglatar edi;

d) to'g'ri yurish-turish. Bu-o'g'irlik qilmaslikni, tirik mavjudotni, shu jumladan, odam o'ldirmaslikni, noqonuniy nikohda bo'lmaslikni, mast qiluvchi ichimlik ichmaslikni hamda yolg'on gapirmaslikni anglatgan;

c) to'g'ri so'z. Bu -yolg'on gapirishdan, tuhmat-bo'htonlardan, fisq-fasod suhbatlardan va mish-mishlardan tiyilishni anglatgan;

g) yashashning to'g'ri daromad manbayiga ega bo'lish. Bu-qurol, mast qiluvchi ichimliklar sotishdan, shuningdek, hayvonlarni o'ldirishdan, fohishalikdan tiyilishni anglatgan.

h) to'g'ri xatti-harakat. Bu -o'z ongini inson uchun zarar keltiruvchi o'y-fikrlardan xoli qilish va foyda keltiruvchi o'y-fikrlar bilan yashashni anglatgan;

i) to'g'ri xotirlash. Bu-in sonning o'z tanasining, hissiyotining, ruhiy holatining bir me'yorda faoliyat ko'rsatishiga jiddiy e'tibor bilan qarashini anglatgan. Bu narsa insonga Budda axloqiy tamoyillariga amal qilib yashashida katta rol o'ynaydi, deb hisoblanadi;

j) fikr-e'tiborni to'g'ri narsalarga qaratish. Bu-insonga Budda ta'limoti qoidalaridan chalg'imaslik imkonini beradi⁷⁰.

Buddizm ta'limoti, asosan, uch qismdan iborat. Bular 1) axloq 2) meditatsiya 3) donolik⁷¹.

1.Axloq normalari – “Pancha shila” (Buddaning besh nasixati):

a)qotillikdan saqlanish; b)ug'irlikdan saqlanish; c)gumrohlikdan saqlanish; d)yolg'on, qalbaki narsalardan saqlanish; g) mast kiluvchi narsalardan saqlanish.

2.Meditatsiya.

a) to'g'ri tushunish (to'g'ri e'tiqod qilish) - Buddaning birinchi da'vatida so'z yuritilgan to'rt xaqiqatni bilish va unga ishonish; b) to'g'ri niyat qilish - dunyoviy lazzat-xalovatlardan xalos bo'lishga, keraksiz fikrlar va boshqalarga

⁷⁰ Jo'rayev U.T. Dunyo dinlari tarixi. T. 2006. B.82-83.

⁷¹ Ларий Горяев . “ Буддизм история и традиция”. Санкт-Петербург. 2007 г. С.64.

zarar yetkazib kuyishdan saqlanishga intilish; c) o'zini to'g'ri tutish – o'ziniki bo'lmagan narsaga ko'z olaytirmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik; d) to'g'ri anglash- o'z tanasi va ruhiga o'zini yo'qotib qo'ymaydigan darajada nazoratda bo'lish hamda bunda ehtiroslar va iztiroblarga chek qo'yish; g) to'g'ri harakat qilish - uzidagi yomon tuyg'ularni jilovlash hamda ezgu tuyg'ular va xarakatlarni rivojlantirish; h) to'g'ri xayot kechirish - noma'qul hayot tarzidan saqlanish; v) to'g'ri fikr yuritish - kamolotning to'rt bosqichini ketma-ket bosib o'tish; s) to'g'ri gapirish – yolg'ondan, tuhmatdan va befoyda gaplardan saqlanish.

3. Donishmandlik - bu buddizmning asosiy maqsadi bo'lib, narsalar tabiatini to'g'ri tushunishdan iborat.

Yuqorida ko'rsatilgan uch amaliyot bosqichini o'tagan inson oxir-oqibat oliy saodatga, ya'ni nirvana holatiga erishadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, nirvana suzining lug'aviy ma'nosi – “uchish, sunish”. Unda hayotning har qanday ko'rinishiga intilish yo'qoladi.

Xo'sh buddaviylikning bu jihatlari zardushtiylikda qanday yoritilishini ko'rib o'tamiz. Yuqorida sanab o'tilganlarning deyarli barchasi zardushtiylik ta'limotida ham mavjud. 1) fikr sofliigi; 2) so'zning sobitligi; 3) amaldorlarning insoniyligi. Zardushtiylik ta'limotida axloqqa katta e'tibor beriladi, kishining ma'naviy barkamolligi qadrlanadi, odamlarni imon-e'tiqodli bo'lishga da'vat etiladi. Faqat imonli odam ezgulikni yovuzlikdan farqlay oladi deyiladi zardushtiylikda. Zardushtiylik imoni fikrlarning sofliigi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligiga asoslanadi. Odamlar tozalikka va tartib-intizomga qat'iy rioya qilishlari kerak. Kishilardagi mehr-shafqat, ota-ona, oila va Vatanga muhabbat, minnatdorlik his-tuyg'ulari ulug'lanadi. Ota-onadan farzand oldidagi burchini bajarishlari talab qilinadi. Ahuramazda odamlarni mehnatni sevisht, yerga ishlov berish va chorvani ko'paytirishga da'vat etadi. Dunyoda moddiy boyliklarning ko'payishi zulm va yovuzlikning yo'qolishiga xizmat qiladi. Zardushtiylik ta'limotida ma'naviy qadriyatlarni jamiyatda qaror toptirish muammosi alohida ahamiyatga ega. Din kishilarni halol yashashga da'vat etsa-da, o'z hayot yo'llarini erkin tanlash erkinligini beradi.

Zardushtiylik axloqining asosini-ezgu fikr, ezgu soʻz va ezgu ishlar tashkil etadi. Bu tushunchalar haqida gapiradigan boʻlsak, ezgu fikr bu-niyatning pokligidan, ilohiy qonunlarga amal qilishdan, yaqinlarga yaxshilik qilishdan, zarur boʻlganda esa ularga madad koʻrsatishdan, kishilar baxt-saodati uchun yovuzlikka qarshi kurashga ruhan tayyorlik oʻy-fikri, barcha bilan tinch va totuv yashashga intilishdan iboratdir. Ayni paytda, boshqalarga nisbatan baxillik qilmaslik lozim. Ezgu fikr egasi hech qachon jaholatga berilmaydi. Chunki jaholat kishidagi ezgu niyatlarni yoʻqqa chiqaradi. Ezgu fikr, ezgu soʻz va ezgu ishlar birgalikda amal qilishi zarur. Zardushtiylikda ularning birligi deyilganda: yetim-yesirlarga mehribon boʻlish, musofirparvar boʻlish, oʻzga dindagi kishilarga toqatli boʻlish, kishiga isnod keltiradigan ishlardan, hasad va mehnatsiz topiladigan daromadlardan oʻzini tiyish, saxovatparvar boʻlish tushuniladi. Ana shu axloqiy tamoyillar ulugʻi Zardusht diniga eʼtiqod qilganlarga zardushtiylikdagi adolatli dunyoning, yovuzlikdan xoli dunyoning qaytib kelishini umid va ishonch bilan kutmoq lozimligi haqidagi taʼlimotini saqlashda hamisha madadkor boʻlib keldi.

Buddaviylik dinida ham aynan shunga oʻxshash axloq qoidalari mavjud. Diniy taʼlimotda hayotning iztiroblardan iborat ekanligi qayd etiladi. Iztiroblar kishini doimo taʼqib qiladi. Odamlar oʻz manfaati va ehtiyojlarini taʼminlash uchun doimo toʻsiqlar va qiyinchiliklarni yengib oʻtishga majbur boʻladi. Maqsad sari tashlangan har bir qadam toʻxtovsiz ravishda yangidan-yangi iztiroblarni vujudga keltiradi. Kishi iztiroblardan xalos boʻlish uchun ehtiros va istaklaridan voz kechishi kerak. Budda iztiroblardan xalos boʻlish va nirvanaga erishishning sakkiz bosqichli yoʻlini ishlab chiqqan:

- 1) toʻgʻri eʼtiqod – hayotning iztiroblardan iborat ekanligini idrok etish, istak va ehtirolarni ongli ravishda cheklash;
- 2) toʻgʻri yoʻl – kishi oʻz hayot yoʻlini toʻgʻri tanlay bilishi;
- 3) toʻgʻri soʻz – insonning gapi samimiy va adolatli boʻlishi;
- 4) toʻgʻri ish – kuch ishlatishga yoʻl qoʻyilmasligi;
- 5) toʻgʻri hayot – tinch, pokiza va adolatli yashash;

- 6) to'g'ri fikr – inson o'z fikrining to'g'ri ekanligini nazorat qilishi;
- 7) to'g'ri niyat – yomonlikning jismimizda mujassamlashganligini bilish;
- 8) to'g'ri mushohada – meditatsiya va mushohada qilishning to'g'ri usullarini tanlash⁷².

Kishi bu bosqichlarni birin-ketin o'zlashtiradi, bir bosqichdan boshqasiga o'tishi bilan ijtimoiy hayot zanjirlaridan ozod bo'lib, ma'naviy erkinlikka erishadi, nirvanaga yaqinlashadi va mutlaq ruh (xudoning jismi)ga qo'shilishga tayyor bo'ladi. Odamlar axloqiy tanlov erkinligiga ega.

Bu dinlarni ma'rosimlariga to'xtaladigan bo'lsak, Buddaviylikda kundalik, davriy va kishi hayotining muhim voqealari bilan bog'liq bo'lgan marosimlar mavjud. Kundalik marosimlarga har kuni bajariladigan ibodat, rohiblarga oziq-ovqat ulashish va boshqalar kiradi. Bu haqda kiyinroq to'xtalamiz. Buddaviylar kundalik ibodatni ikki marta-ertalab va kechqurun bajaradilar. Ertalabki va kechqurungi ibodat ibodatxonada, uyda yoki bunday ish uchun mos keladigan boshqa joylarda bajariladi. Ibodat vaqtida Budda haykali yoki uning ramziy belgilari oldida muqaddas yozuvlardan sutralar (sanskrit tilida-ip, kalava degan ma'nolarni anglatadi. Diniy-falsafiy ta'limotlarning qisqacha bayoni)⁷³ ifodali o'qiladi, unga ta'zim bajo keltiriladi. Budda haykali gullar bilan bezatiladi, sham yoqilib, xushbo'y hidli isiriqlar tutatiladi. Gullar ibodat ishtirokchilariga hayotning o'zgaruvchanligini, muattar isiriq hidlari esa ularga munosib yashash kelajakdagi shirin onlarning garovi ekanligini eslatib turadi. Sham ilohiy haqiqatga erishishning ramziy belgisidir. Kundalik marosimlarga rohiblarga oziq-ovqat ulashish ham kiradi. Ularga moddiy yordam berish savob hisoblanadi.

Shuningdek, Buddaviylikda davriy marosimlar ham mavjud bo'lib, bularga bir oyda ikki marta ehtiyojlarni cheklash marosimini misol qilib keltirishimiz mumkin. Marosim e'tiqodning mustahkamligini, intizomni va ma'naviy yetuklik darajasini sinashga yo'naltirilgan. Bunday kunlarda rohiblar intizom to'g'risidagi nizom qoidalarini targ'ib qiladilar, bu qoidalarga sodiq ekanliklarini shaxsiy

⁷² Narbekov A. V. Dinshunoslik asoslari. O'zbekiston T., 2007. B-76

⁷³ Ma'sudxon Ismoilov Tarixiy atamalar lo'g'ati. Akadeniyanashr.T., 2013. B.407.(shu o'rinda ma'lumot uchun, dastlabki surtalar mil.av. I asrda yozilgan.)

hayotlari bilan namoyish etadilar. Ruhoniylar shaxsiy xizmatlari va savoblarini odamlar bilan bo'lishish maqsadida ularga suv sepadilar. Odamlar yaxshiliklarini ajdodlari bilan baham ko'rish maqsadida yerga suv sepadilar.

Kishi hayotining muhim voqealari bilan bog'liq marosimlarga tug'ilgan kun, balog'at yoshi, oila qurish, yangi uyga ko'chish, vafot etgan kunni nishonlash kabilarni misol keltirish mumkin. Bunday marosimlar ruhoniylar rahbarligida o'tkaziladi⁷⁴.

Zardushtiylikka e'tiqod qiluvchilar ham juda ko'p diniy marosimlarni bajarishgan. Zardushtiylikda kunlik diniy marosimlar bir kunda besh marta o'tkazilgan. Xardushtiylikda ham diniy marosimlarga kohinlar rahbarlik qilgan. Marosimlarning ko'pligi kohinlarning moddiy jihatdan muhtojlikni bilmay yashashlariga imkon bergan. Kohinlarning jamiyatdagi mavqei juda baland bo'lib, ular alohida tabaqani tashkil etgan. Shuning uchun kohinlik otadan farzandga meros bo'lib o'tgan. Kohin o'z farzandini yoshligidan bo'lg'usi kasbga tayyorlab borsa-da, nomzod uzoq vaqt o'qitilgan va bir necha bosqichdagi sinovlar hamda poklanish marosimlaridan o'tkazilgan. Faqat ko'p bosqichli sinovlardan muvaffaqiyat bilan o'tgan kasbga da'vogarlargina kohinlik martabasiga muyassar bo'lgan. Diniy marosimlar ibodatxonalar, ochiq maydonlar va dindorlarning uylarida o'tkazilgan. Zardushtiylik vujudga kelgan dastlabki davrlarda ommaviy diniy marosimlar ochiq maydonlarda va dindorlarning uylarida o'tkazilgan. Dastlab ibodatxonalarning qurilishi Ahmoniylar imperiyasi davridan boshlangan. Ibodatxonalar "olov uylari" deb atalgan.⁷⁵ Ularning rejasi bir xil bo'lib, tosh yoki paxsadan qurilgan. Binoning ichki va tashqi qismidagi devorlari suvoqlangan. Binolarda qimmatbaho bezaklarning yo'qligi sababli ko'rinishi boshqa jamoat binolaridan deyarli farqlanmagan. Ibodatxonaning markazida doimo olov yonib turadigan hujra bo'lgan. Aynan shu joylarda insonlar ibodat qilganlar. Shuningdek, zardushtiylikda olam ikki turda ya'ni, narigi dunyo va shu yeryuzi

⁷⁴ Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. Akademiya nashr. T., 2007. B.79.

⁷⁵ Narbekov A.V. O'sha asar. B.72.

bo'lsa, buddaviylikda olam uch turga bo'linadi. Bular: nirvana, jannat va shu yer yuzidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu ikki din o'rtasida o'xshash tomonlar juda kam. Birgina, yuqorida ko'rganimizdek, ularning bosh g'oyalari ham umuman boshqa-boshqa. Lekin, ulardagi odob-axloq qoidalaridagi qarashlari juda bir-biriga yaqin va bir-birini takrorlab ketadi.

2.2. Zardushtiylik va xristianlik dinlari o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlar haqida

Zardushtiylik bosh g'oyasi boya aytganimizdek yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashdir. Xristianlikda esa asosiy g'oya Iso masih nomi bilan bog'liq. Unda Isoni xudoning o'g'li deb talqin qilinadi.

Zardushtiylik dini bilan Xristianlik dini ham bir biriga o'xshash tomonlari mavjud. Zardushtiylik dinida yagona Ahuramazdaga sig'inadilar. Xristianlik ta'limotiga ko'ra ham dunyoning yaratuvchisi xudodir. Xudo hamma narsadan ustun turadi va abadiydir. Xudoni hech kim yaratgan emas. U azaldan mavjud.

Bu dinlarning farqli tomonlariga keladigan bo'lsak, dunyoning yaratilishi haqidagi ta'limotdir. Zardushtiylik ta'limotida Ahuramazda dunyoni 12 yilda to'rt bosqichda yaratadi. Xudo dunyoni 6 kunda yaratgan. Ayni paytda, xristianlikda yagona Xudo muqaddas uchlik (troitsa) shaklida namoyon bo'ladi. Bu degani - yagona xudo uch qiyofalidir. Bular- Ota xudo, O'g'il xudo va muqaddas Ruh xudo. Ota xudo tug'ilish yo'li bilan paydo bo'lmagan. Uni hech kim yaratgan emas. Muqaddas Ruh xudo Ota xudodan paydo bo'lgan. O'g'il xudo (Iso Masih) esa inson bolasidan tug'ilgan. Shuning uchun u ham ilohiy, ham insoniy tabiatga ega⁷⁶.

Yer yuzidagi dastlabki odamning yaratilishidagi ikki dinning qarashlarini ko'rsak. Yer yuzidagi dastlabki odam Zardushtiylikda Yima bo'lsa, Xristianlikda Adam (Odam Ato) va Yeva (Momo Havo). Xristianlikdagi bu qarash islomdiniga juda o'xshab ketadi. Xristianlik ta'limotiga ko'ra, Odam Ato va Momo Havoning qilgan ishlari shunday katta gunoh ediki, odamlar har qancha qurbonlik qilsalar ham xudoni qanoatlantira olmas edi. Shunday bo'lsa-da, xudo odamlarga rahm qilib o'g'li Isoni o'limga mahkum etgan. Shu qurbonlik Xudoni Isoga e'tiqod qilganlar bilan yarashtirgan va odamlarga cho'qintirish orqali gunohdan xalos bo'lish yo'lini ochib bergan. Endi odamlar faqat xristian cherkovi bag'ridagina xudoning marhamatiga, uning himoyasida bo'lishga umid bog'lashlari mumkin edi.

⁷⁶ Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. Akademiya nashr. T., 2007. B.102.

Bu dinlardagi odob-axloq masalalariga to'xtalsak. Zardushtiylikda ilm-ma'rifat va axloq-odob masalalariga ham juda katta e'libor berilgan. Zardushtning, xususan, "Tarbiya hayotning eng muhim tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim", — degan fikrlari diqqatga sazovordir. Ayni paytda, u bola tarbiyasi masalasini qanday hal etish usul va yo'llarini ham o'z davri uchun batafsil ta'riflab bergan. Zardushtiylarda bola tarbiyasi quyidagi uch yo'nalishda amalga oshirilgan⁷⁷:

1)diniy va axloqiy tarbiya; 2)jismoniy tarbiya; 3)o'qish va yozishga o'rgatish. Bolalarga diniy tarbiya 7 yoshdan boshlab berilgan. 7 yoshga to'lgan o'g'il bolaga maxsus «muqaddas ko'ylak» kiydirilgan va bu odatga bag'ishlab maxsus marosim o'tkazilgan. Xususan, bolalar o'qituvchisi bilan bir qatorda Quyoshga(Olovga) qarab turishgan va o'qituvchisi bilan birgalikda Axuramazdaga murojaat qilganlar. Ular o'z murojaatlarida zardushtiylik diniga sodiq bo'lishga va'da berishgan. Yaxshi fikrlar, yaxshi so'zlar va yaxshi ishlarga ishonishni va ularning sohibi bo'lishga intilishlarini ma'lum qilganlar. Yuqorida aytganimdek, Bunday mashg'ulotlar bir kunda besh marta takrorlangan. Mashg'ulotlarning asosiy maqsadi bir tomondan - yosh zardushtiylar qalbida dunyodagi barcha ezgulik va yaxshilikning bunyodkori Axuramazdaga e'tiqodni mustahkamlash edi. Ikkinchi tomondan esa, yovuzlik timsoli Axrimandan nafratlanish hissini tarbiyalash edi. Marosim oxirida bolalarga sovg'alar ulashilgan. Zardushtiylikda 15 yosh balog'at yoshi hisoblangan. Bu yoshga to'lgan bolalar zardushtiylikka e'tiqod ramzi sifatida bellariga jun ipakdan to'qilgan kamar bog'lab yuradigan bo'lganlar. Shuningdek, endi ularning ibodatxonalarda o'tkaziladigan diniy marosimlarda qatnashishlari shart qilib qo'yilgan. Zardushtiylikda bolalarning nafaqat jismonan barkamol, ayni paytda, ma'naviy jihatdan pok, hush axloqli bo'lishi masalasi ham alohida o'rin tutadi. Jismoniy tarbiyadan kuzatilgan asosiy maqsad- bolalarni sog'lom tanga ega bo'lishi va harbiy ishga tayyorlash edi. Shuning uchun ham bolalar otda chopishga, ov qilishga, qilichbozlikka, qalqon yordamida o'zini himoya qilishga, suzishga, yugurishga, sakrashga va

⁷⁷ Jo'rayev U.T. Dunyo dinlari tarixi. T. 2006. B.46.

nayza otishga o'rgatilgan. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada bolalarning mehnatsevar, kasb- hunar egasi bo'lishiga, mehnatga inson kamoloti va axloqiy sog'lomligining manbayi deb qarashga katta urg'u berilgan. Bularsiz inson rohat-farog'atda hayot kechira olmaydi. Ezgulik va yaxshilik ishlarining sohibi bo'la olmaydi. Inson, -deb ta'lim beradi zardushtiylik,-chorvaning ko'payishiga, yaylovlarning gullab-yashnashiga yordam bergan taqdirdagina, dehqonchilik va sug'orish ishlarida ishtiyoq bilan mehnat qilgandagina Axuramazda va uning yordamchisining inoyatiga sazovor bo'ladi. Dehqonchilik mehnati- Ezgulik namoyon bo'lishining asosiy shakli - Axuramazdada mujassamlashgan qonunga bo'ysunishdir, deb uqtiriladi yana zardushtiylikda. Mehnatdan bo'yin tovlagan, dangasa odam oxir-oqibatda xoru-zor bo'lishga mahkum.

Xristianlikda ham axloq masalalariga katta e'tibor berilgan. Lekin bugungi kunga kelib bu shakillar o'zgarib bormoqda. Shunga qaramay, Xristian ilohiyotchilari bu dindagi axloqiy me'yorlarni umuminsoniy deb da'vo qilib, bu axloqning o'zini esa eng oliy darajali va insonparvar axloq deb ishontirishga zo'r berib urinadilar. Buning uchun ular birinchi navbatda mehr-muhabbat haqidagi g'oyani dalil qilib keltiradilar. Ayni paytda xristian ilohiyotchilari bu dindagilar gunohlarga botganliklari uchun xristian axloqini odamlar ongiga singdirish mumkin bo'lmay kelganligini tan olishga majbur bo'lmoqdalar. Bunga xristianlar orasida qotillik, o'g'rilik, qalloblik, alkogolizm, giyohvandlik, poraxo'rlik, buzg'unlik, terrorchilik, reketchilik, bezorilik keng tarqalayotgani sabab bo'lmoqda. Lekin xristianlikda axloqsizlikni oqlab tasvirlash uchun "asos" hamisha topiladi. Bunda aybni dinga emas, ijtimoiy tuzimga, siyosiy vaziyatga va ma'naviy krizisga yopishtiradilar.

Xristianlik axloqi odamlar mohiyatan axloqsizlikka moyildir, faqat xudo mutloq axloqlidir deb da'vo qiladilar. Axloqqa baho berish huquqiga ega bo'lgan yakkayu yagona hakam (sudiya) aynan xudo, deb targ'ib qiladilar.

Xristianlik axloqiga ko'ra yana bir fazilat xamma ko'rguliklarni kechiraverishdan, binobarin, arzisa yoki arzimasa, boshqalar gunoxini, azobini, yovuzligini afv etishdan iborat. Bu xam odamning moxiyatan gunoxkorligidan

keltirib nourin xulosa chiqariladi. Kechirish darajasi, xarakteri, vaqti, o'rni aslo bir xil emas. Masalan, qastdan, bilib- turib qilingan jinoyatini aslo kechirib bo'lmaydi, mayda-chuyda dilozorlik, tasodifan, bilmasdan qilinib qo'yilgan, uzr suralgan, takrorlanmaslikka va'da berilgan gunoxlarni kechirsa bo'ladi. Masalan, talabaning institut doirasidagi progulini, bezoriligini, aldamchiligini, beandishaligini kechirib bo'lmaydi. Mayda- chuyda gunoxlarnigina shartli ravishda, kattik tanbeh berib, uzr suratib, takrorlanmaslikka va'da olib kechirsa bo'ladi. Xristianlikda bugungi kunda shunday axloqsizlik avj olib bormoqda.

Xristianlikda oddiy odamlarining orzu-umidlari xam o'z ifodasini topgan. Masalan, barcha beva-bechora, yetim-yesirlarning birodarligi, qavmu-qarindoshlarga mexr- muhabbat bilan qarash lozimligini va xokazolarga keng o'rin, e'tibor berilgan. Bu g'oyat ijobiy axloqiy fazilat edi. Biroq, keyinchalik bularni targ'ib qilish va ularga amal kilish susaygan. Ko'proq og'izda, muqaddas yozuvlar qog'ozida qolgan. Chunki, keyinchalik cherkov bu da'volarni oddiy dindorlarni o'ziga qarshi qaratib, yoppasiga mexr- muxabbat ulashish, taqdirga tan berish va itoatkor bo'lishni targ'ib qila boshlagan. Hozir ham shunday qilinmoqda. Bu xol cherkovning ilk xristianlikdan chekinishidir.

Cherkov o'tmishda ham, hozir ham mazlumlarning azob- uqubatlari evaziga beriladigan ajr (mukofat) ni va dalolat tantanasini « xudoning saltanati» va marxamatiga bog'lab qo'yadi; bularning kachon kelishi provardida faqat shu xudoning irodasiga bog'lab qo'yiladi. Shu sababdan cherkov oddiy dindorlar ommasini mavjud adolatsiz jamiyatni qayta qurish olib borayotgan kurashni axloqsiz deb e'lon qiladi.

Xristianlikdagi uch yuzli odam- xudo, o'g'il- xudo va muqaddas ruh keng targ'ibot qilinadi. Xudo o'g'il- Iso Masihning uzi azob- uqubatlari ostida ulib, osmonga parvoz qilib ketgan. Kachon “ qaytarilib, qayta yerga tushishi” xaqidagi ruxoniylarning o'zi ham fikr bildiray olmaydilar. Ungacha mazlumlardan ezilib, xokisor bo'lib, taqdirga tan berib, xayotdan ko'z yumib ketaveradilar.

Xristianlikda yovuzlikka kuch bilan qarshi chiqmaslik, yomonlikka iloji boricha yaxshilik qilish kerakligi xaqidagi g'oyani ham hech qanday tahlil va tanqidga arzimaydi.

Xulosa shuki, xristianlik va zardushtiylik dinlari o'rtasidagi o'zaro o'xshash va farqli tomonlar mavjud. Lekin xristianlik buddizmga qaraganda zardushtiylikka juda yaqin va g'oyalari bir-biriga yaqindir. Mislol qilib yuqorida aytganimizdek, bu dinlarning bosh go'yalari asosan bir xil.

2.3. Zardushtiylik va islom

Dunyo dinlari orasida islom dini zardushtiylik bilan eng yaqin ya'ni g'oyalari naqinligi jihatdan asosiy o'rinda turadi. Bunga birgina "yaratuvchi zodning yaganaligi" talqin qilinishini misol qilib olishimiz mumkin. Zardushtiylikda Axuramazda Yer yuzida adolat qonunining tantanasi uchun kurashadi, biroq bu kurash juda og'ir kechadi. Axuramazda adolat uchun kurashda yolg'iz emas. Unga doimo quyidagi 6 nafar eng yaqin yordamchilari (farishtalar) ko'maklashadi⁷⁸:

1. Chorva mollari va ezgu fikr homiysi (Vohu Manax).
2. Olov va yuksak haqiqat homiysi (Asha Vahishta).
3. Ma'dan va qudrat, hokimiyat homiysi (Xshatra Varya).
4. Yer va diyonal homiysi (Sienta Armati).
5. Suv va salomatlik homiysi (Xarvatat).
6. O'simlik va manguilik homiysi (Ameretat).

Axuramazda o'zining bu 6 nafar yordamchisini muqaddas ruh yordamida yaratgan. Ular ham abadiydir.

Xuddi shu jihatlarni islomda ko'rishimiz mumkin. Islom dinida ham Olloh yagona yaratuvchi zod va uning 4 ta farishtasi bor. Bular: Jabroil (odamlar va Olloh o'rtasidagi elchi)

Mikoiil (Koinotni boshqaruvchi farishta)

Isrofil (oxitar kunida nay choluvchi farishta. Oxirat kunida u uch marta nay chaladi. birinchisida hammatirik jonzodlar o'ladi. Ikkinchi chalganda ruxlar tanalarga kiradi. Uchinchi chalganda hammaarshga qarab turadi)

Azroil (jon oluvchi farishta)⁷⁹

Dunyoni yaratilish haqidagi ta'limoti han bu dinlarda o'xshashlik mavjud. Zardushtiylikda insoniyat tarixi 12 ming yildan iborat va to'rt bosqichga bo'linadi deyiladi. Ularning har biri 3 ming yil davom etgan⁸⁰.

Birinchi bosqichda ruh, g'oya va narsalar bo'lmagan. Asta-sekin ibtidoiy

⁷⁸ Jo'rayev U.T. Dunyo dinlari tarixi. T., 2006. B.40.

⁷⁹ Shayx Ali Tantoviy. Islom diniga umumiy ta'rif. Islom universiteti nashriyoti. T., 2013. B-255.

⁸⁰ Jo'rayev U.T. Dunyo dinlari tarixi. T., 2006. B.42.

bo'shliqdan keyinchalik yerda yuzaga kelgan narsa va hodisalarning dastlabki belgilari shakllangan.

Ikkinchi bosqichda Donishmand xudo (Ahuramazda) osmon, yulduz, oy, quyosh, tabiat, yer yuzidagi dastlabki odam-Yima (islomda Odam Ato) va birinchi muqaddas buqa (Geush urvan) kabilarni yaratgan. Yima (Firdavsiyning «Shohnoma» dostonida Jamshid deb atalgan) xudo Ahuramazdani ilk bora tan olgan kishi. Yima insoniyatning ajdodi bo'lib, barcha odamlar undan tarqalgan. Muqaddas buqadan hayvonot dunyosi vujudga kelgan. Axriman ham Ahuramazdaga qarama-qarshi koinotda planetalar va kometalarni, yerda cho'llar, vahshiy hayvonlar, kasallik qo'zg'atuvchi jonzodlarni yaratgan. Qarama qarshiliklarning koinotdagi va yerdagi to'qnashuvidan butun borliq harakatga kelgan.

Uchinchi bosqichda Avestoda qayd etilgan personajlarning faoliyati boshlangan. Yima odamlar va chorvani olamning suv bosishi falokatidan qutqargan hamda Ahuramazda yordamida odamlarga rahbarlik qilgan. Dunyoda yaxshilikning tantanasiga xizmat qilgan. Yima podsholigida odamlar sharaf uyi (jannat)da yomonlik, adolatsizlik, yovuzlik, kasallik va o'limning nima ekanligini bilmay, baxtli hayot kechirganlar. Shu bois Yimaning hukmronlik davri Avestoda «oltin asr» deb ataladi. Yima davrida odamlar yer haydab, dehqonchilik qilganlar va chorva urchitganlar. Vaqt o'tishi bilan Yima odamlarga ko'rsatgan yaxshiliklaridan g'ururlanib, manmanlik, o'zgalar dardiga befarqlik yo'liga kirgan. Mansabparastlik va o'z imkoniyatlariga ortiqcha baho berishi oqibatida Ahuramazdaning nasihatlarini bajarmay qo'ygan. Oqil xudo man etgan muqaddas buqani ov qilib, uning go'shtidan taom tayyorlashni buyurgan. Manmanlik, o'zboshimchalik va man etilgan ishlarni sodir etganligi uchun Ahuramazda Yima va uning avlodlarini jazolangan. Odamlar jannatdan chiqarilgan, tirikchilik tashvishlari, yeb-ichish zarurati, kasalliklarga duchor etilganlar, boqiylik imtiyozidan mahrum qilinganlar. Uchinchi bosqichning oxirlarida Zardushtning faoliyati boshlangan va Zardushtning vafotidan keyin uchinchi bosqich tugagan.

To'rtinchi bosqichning har ming yilida dunyoga uchta xaloskor

(payg'ambar) keladi. Ularning oxirgisi - Oso'shyant oxiratda dunyoga kelib, barcha imonlilarning ruhlarini bihishtga yetaklaydi, gunohkor bandalar uchun xudo Axuramazdadan mag'firat so'raydi. Oxiratda yovuz ruh yengilib, yaxshilik yomonlikning ustidan uzil-kesil g'alaba qiladi. Dunyo eritilgan temir bilan soflanib qayta quriladi. Yerdagi hayot tubdan o'zgaradi. Yaxshilik tantana qiladi, yomonlik va o'lim yo'qoladi. Gunohkorlar o'zlarining sodir etgan yomonliklari uchun pushaymon bo'lib, xudodan kechirim so'raydilar. Yangilangan dunyoda yomonlik yo'q qilinganligi sababli gunohkorlar kechiriladi, abadiy rohat-farog'at jamiyati barpo etiladi. Oxiratda ziddiyatlarga to'la olam yo'q qilinsa ham odamlar undan qo'rqmasliklari kerak. Zero, oxiratda kishilarning azaliy orzu-istagi hisoblanuvchi baxt, adolat, tinchlik va tenglikka asoslangan jamiyat quriladi. Dunyo tamoman o'zgaradi va undan yomonliklar butunlay yo'qoladi.

Islom dinida ham dunyoni yaratilishi haqida shunga o'xshash rivoyat mavjud. Bu yaratilish davrini bir necha davrga bo'lishimiz mumkin. Dastlab bosqichda Olloh farishtalarni so'ngra yer yuzi, tabiatni so'ngra Odam Atoni yaratadi. Shundan so'ng uning qovurg'asidan Momo Havoni yaratadi. Ular ikkalasi jannarda noxat-farog'atda yashashadi. Lekin kunlarning birida Olloh tomonidan taqiqlab qo'yilgan mevani yeb qo'ygandan so'ng, ular jannatdan haydaladilar. Ular yer yuzini ikki qismiga tushadilar va yillar o'tib, ular bir-birini topadilar va insoniyat Odam Ato va Moma havodan tarqaladilar. Kiyingi bosqichda birin-ketin yer yuziga payg'anbarlar tushiriladi. Ular odamlarni yaxshilikka yetaklashi, yomon ishlardan tiyilishda davit qiladilar. Shunday payg'anbarlardan, Sulaymon, Dovud, Ibrohim, Muso, Iso Masih. Kiyingi bosqichda Ollohning so'ngi payg'anbari Muhammad (s.a.v) yer yuziga tushiriladi. Shundan so'ng uning izdoshlari musulmon bolib, Ollohga sajda qiladilar. Oxirat kunida esa insonlar barchasi tiriladilar va yomon ishlari uchun jazolanadilar.

Yuqorida aytganimizdek, Zardushtiylikda o'ziga xos ibodat qilish marosimi shakllangan. Dindorlar Ahuramazdaga bir kunda besh marta sig'inganlar. Ibodat janub tomonga qarab, toza joyda va yomon yerlardan yiroqda bajarilgan.

Zardushtiylar erta tongda, uydan chiqish va kirish vaqtida, soflanish, kechki uyqudan oldin hamda diniy marosimlarni bajarish vaqtlarida ibodat qilganlar. Zardushtiylikda tozalikka e'tibor diniy aqida darajasiga ko'tarilgan. Tozalik ham jismoniy, ham ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan. Ma'naviy tozalik kishining ichki madaniyati, adolat, haqiqatni so'zlash, insonparvarlik, mehr-shafqatlilik singari umuminsoniy axloq normalaridan iborat. Jismoniy tozalik deganda pokiza, toza va orasta yashash bilan birga, muqaddas narsalarni ham ifloslantirmaslik tushunilgan. Notoza (yovuzlik timsoli) deb qabul qilingan o'simliklar, hayvonlar va hasharotlarga, o'lgan odamning mayyitiga tegishish gunoh hisoblangan. Bunga yo'l qo'ygan kishi murakkab soflanish marosimidan o'tkazilgan. Notoza ishlarni bajaradigan kishilar jamiyatda eng past tabaqani tashkil etganlar. Ular o'lgan odamning mayyitini yuvish, tobutni qabrga ko'tarib borish kabi "notoza" ishlarni bajarganlar. Mazkur tabaqa vakillari boshqa guruhlardan alohida yashaganlar. Ularning jamoat foydalanadigan suv manbalariga yaqin kelishlari va hatto soyalari tushishiga ham yo'l qo'yilmagan.

Xo'sh solishtiradigan bo'lsak, islom dinida ham ibodan bir kunda besh marta amalga oshiriladi. Ya'ni musulmonlar bir kunda besh vaqt namoz o'qiydilar va Ollohga shukrona keldiradilar. Shuningdek islom dinida ham tozalik, ozodalik, haqiqatni so'zlash, insonparvarlik birinchi o'ringa qo'yiladi. Lekin islom dinida tabaqalanish yo'q. Hamma din oldida bir xil mavqega ega.

UMUMIY XULOSALAR

Zardushtiylik va jahon dinlari qiyosiy tahlili mavzusini o'rganib chiqqan holda quydagi xulosalarni belgiladik:

Birinchidan, Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan ba'zi bir marosim va urf-odatlar mavjudki, ular boshqa dinlarda uchramaydi. Bundan tashqari, hozirgi zamonning hamma dinlarida vorislik, ya'ni meros qilib olish tamoyili bor. Shunga binoan O'rta Osiyoda tarqalgan buddaviylik, xristianlik va ayniqsa islomda zardushtiylikning ta'siri, asorati kuchli. Bu din keng yoyilganligi va uzoq vaqt yashaganligi uchun u ajdodlarimiz ongi turmushiga katta ta'sir o'tkazgan. U vaqt, sharoit va o'ringa qarab o'zgargan, zamonaviylashgan. Shuningdek ijobiy, dunyoviy jihatlari boshqa dinlarga bevosita va bilvosita singanligini yuqorida mavzu doirasida ko'rib chiqdik. Masalan, mehnatga dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilikni rivojlantirishga da'vatlar bajonidil qabul qilingan. 4 element: suv, tuproq, havo, olovni ezoqlash, avaylash, asrash haqidagi nasihatlar hozir ayniqsa dolzarbdir. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanmish "Avesto" da dunyoning moddiy asosi hisoblangan yer, suv, havo, olov ulug'langan. Tuproq va havo shunday e'zozlanganki, havoni bulg'ash, iflos qilish, yerga hayvonlar o'ligi u yoqda tursin, odamlar jasadini ko'mish yoki suvga oqizish katta gunoh hisoblangan. Marhumlar jasadi suvni, havoni, tuproqni zaharlab qo'ymasligi uchun maxsus sopol idishlarda ko'mish rasm bo'lgan. Bundan tashqari Avestoda yozilishicha, yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishi 400 qamchi urish jazosiga mahkum etilgan. Hali-hanuzgacha urf-odatlarimizda saqlanib kelayotgan muqaddas aqidalar "Suvga axlat tashlama", "Olov o'ynama, tunda bosinqiraysan", "Kulni tepkilama", "Quyoshga tik qarama", "Harom idishni olov bilan tozala" kabi so'zlar "Avesto"dan bizga meros sifatida saqlanib qolgan hamda u milliy tarbiyamizda shaxs ma'naviy fazilatlarini kamol toptirishda, ayniqsa, bugungi kunimiz uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinchidan, tashqari bugungi kunimizda ba'zi bir marosimlar borki, ular boshqa dinlarda uchramaydi. Misol uchun bugungi to'ylarimizdagi kelinni olov

atrofida aylantirishi, pichoqni dasturxon atrofidan olib qo'yish kerakligi, olingan soch va tirnoqlarni yerga ko'mish va shunga o'xshash marosimlarimiz.

Uchinchidan, jumladan islomga amalda e'tiqod qiluvchilar esa zardushtiylikdagi halollik, poklik, binoanlilik, odillik, mehnatsevarlik, elim deb, yurtim deb yonib, kuyib-pishib yashashlik haqidagi da'vatlariga hamisha amal qilishlari lozim. Insonni tarbiyalashda ayniqsa zardushtiylik va undan meros bo'lib qolgan shunday usullar borki, u bugungi kunda juda muhim ahamiyatga ega. Misol uchun, har bir komil inson bu dindagi yovuzlik timsoli Ahriman keltiradigan xaromxo'rlik, xiyonatkorlik, nopoklik, aldamchilik, razillik, bezorilik, o'qishda, ishda yalqovlik, shaxsiy hayotda bevafolik, laqmalik, isrofgarchilik va hokazolarga qarshi o't ochishlari lozim.

To'rtinchidan, yuqorida ko'rib o'tgan dinlarda barchasida odob-axloq qoidalari bir-biriga juda yaqin ekanligi aniqlandi, lekin xristianlikda axloq qoidalari boshqa dinlardan farq qilishi ya'ni faqatgina xudo axloqli bo'lishi mumkinligi boshqa dinlardan ajralib turishini alohida ta'kidlash lozim

Beshinchidan, birgina bu dinlardagi yaratuvchi zotni ya'ni yakkaxudolikni talqin qilish ham tafovudlar mavjudligi aniqlandi. Buddaviylik dinida yaratuvchi zotning borligiga shubha qiladi. Aynan shu jihat buddaviylikni zrdushtiylik, xristianlik, islom dinlaridan ajratib turadi.

Oltinchidan, dunyoni yaratilishida bu dinlarda juda ko'p farqli tomonlarni aniqladik. Misol uchun, Zardushtiylikda insoniyat tarixi 12 ming yildan iborat va to'rt bosqichga bo'linadi deyiladi. Ularning har biri 3 ming yil davom etgan. Buddaviylikda dunyoni yaratilishi uch kunda amalga oshirilgan.

Yettinchidan, zardushtiylikda va islom dinida axloqiy jihatlar bir-biriga juda yaqindir. Ta'lim tarbiya sohasida ham ikkala dinda ham bolani ham diniy, ham jismoniy, ham o'qish,yozishni o'rgatish asosiy vazifalardan iborat hisoblangan. Ammo bu dinlardagi o'zaro zid tomonlar o'rganildi. Misol uchun zardushtiylikda ijtimoiy tabaqalanish mavjuddir, islom dinida esa barcha din olida tengdir, degan fikr mavjud.

Sakkizinchidan, zardushtiylikning o'zidan keyingi barcha dinlarga salbiy

ta'siridan ko'ra ijobiy ta'siri ustun bo'lgan. Deyarli barcha dinlarga xos xususiyat bo'lgan insonlarni yetuklikka, ma'naviyati boy, axloq-odobli bo'lib tarbiyalashga intilish zardushtiylik dinining ham asosini tashkil qiladi. Bu ustunlik musulmonlar hayoti va faoliyatida ayniqsa e'tiborga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 1.1. Karimov I.A. "O'zbekiston: Yangilanish va tarqiqiyotning o'z yo'li". Toshkent. -1992
- 1.2. Karimov I.A." O'zbekiston buyuk kelajak sari". O'zbekiston nashriyoti. Toshkent 1999.
- 1.3. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". Sharq nashriyoti. Toshkent 1998.
- 1.4. Karimov I.A. "Yuksak manaviyat – Yengilmas kuch". Ma'naviyat nashriyoti. Toshkent 2008

2. Ilmiy adabiyotlar.

- 2.1. Abdullayev H "Islom dinining vujudga kelishi va ba'zi masalalar" Pravda vastoka Toshkent 1986-yil.
- 2.2. Abdusamedov A.E.,Shoabdurahimova Sh. "Dinshunoslik asoslari kursidan ma'ruzalar matni va uslubiy maslahatlar". O'z.MU. Toshkent 2002-yil.
- 2.3. Ahmadjon Bobomurod "Islom odobi va ahloqi" Toshkent 2002-yil
- 2.4. Ahmad Muhammad Tursin "Islom dini" Toshkent 2003-yil
- 2.5. Alimova M "Islom dini va uning marosimlari" Toshkent 1958-yil.
- 2.6. Alimuhammedov A "Islom dinidagi marosimchilik va urf-odatlar" Toshkent 1969-yil.
- 2.7. Andrey Kurayev "Buddizm I xristiansvo"
- 2.8. Azim O'ktam "Islom odobi vamadaniyati" Toshkent 1995-yil
- 2.9. Berzin O.E. "Zardushtiylik Ta'limoti nima?". Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti. 1987-yil.
- 2.10. Hamidjon Hamidiy "Avestodan Shohnomagacha" sharq nashriyoti Toshkent 2007-yil
- 2.11. Jo'rayev U. , Saidjonov Y. "Dunyo dinlari tarixi" "Sharq" nashriyoti Toshkent. 1998-yil.

- 2.12. Klark “Zarozstrizm” . Hakimboyev tarjimasi. Toshkent 2008-yil
- 2.13. Kirillo Koroliva “Buddizm Ensklopediya” Moskva 2009-yil
- 2.14. Lariy Goryayev “ Buddizm istoriya I traditsiya” Sank-Peterburg 2007-yil
- 2.15. Lobazova O.F. “Relegivedenii” Moskva 2004-yil
- 2.16. Mirsodiq Is’hoqov. “Avesto Yasht” kitobi. Sharq nashryoti. Toshkent. 2001
- 2.17. Mo’minov A.va boshqalar. “Dinshunoslik” Toshkent 2002-yil.
- 2.18. Nasriddinov A.N., Tohirov S.T. “Dinshunoslik” Toshkent davlat yengil to’qimachilik va sanoat instituti. Toshkent. 2006-yil.
- 2.19. Nurbekov A.V. “Dinshunoslik asoslari” O’zbekiston Respublikasi IIV. Toshkent . 2007-yil.
- 2.20. Qodirjon Yo’ldoshev “Avestoda tarbiya masalalari” “Andijon hashriyot matbaa” ochiq aksiyadorlik jamiyati. Andijon. 2007-yil.
- 2.21. Salimova .S. “Dinshunoslik” Toshkent 2005-yil.
- 2.22. Shoahnovich M.M. “Relegivedenii” Moskva 2008-yil.
- 2.23. Shayx Ali Tantoviy “Islom diniga umumiy ta’rif” Toshkent 2003-yil
- 2.24. Smilyanskaya I.M. va Kyamilev S.X. ”Islam v istorii naroda vastoka” Akademik nauk Maskva 1981-yil
- 2.25. “Avesto”-O’rta Osiyo xalqlari madaniyati tarixida” Xorazm Mamun akademiyasi nashriyoti. Xiva 2001-yil

3. Internet saytlari.

- 3.1. 7.3.www.google.com
- 3.2. 7.4.www.google.ru
- 3.3. 7.5.www.tarix.uz,
- 3.4. 7.6.www.ziyonet